



O‘ZBEKISTON YOSHLARIGA BAYRAM TABRIGI

Qadri o‘g‘il-qizlarim!

Avvalo, siz, azizlarni, sizlarning timsolingizda butun O‘zbekiston yoshlarini mamlakatimizda keng nishonlanayotgan qutlug‘ ayyom — Yoshlar kuni bilan chin qalbindan muborakbod etaman.

Ushbu bayramni sizlar bilan birgalikda katta shod-u xurrilik bilan o‘tkazayotgan ota-onalaringiz, ustoz-murabbiylaringizni, ko‘p millatli butun xalqimizni samimiy qutlab, barchangizga o‘zining yuksak hurmat-ehtiroim va ezgu tilaklarini bildiraman.

Albatta, mana shunday quvonchli ayyomda yurtimiz kelajagi, umid va ishonchimiz ramzi bo‘lgan azmu shijoatli farzandlarimiz timsolida Vatanimiz naqadar ulkan imkoniyatlarga ega ekanini yanada chuqur his etamiz.

Bugungi kunda maktab, kollej, texnikum va oliygohlarda bilim olayotgan, o‘z shaxsiy ishini ochib, tadbirkorlik bilan shug‘ullanayotgan, Qurolli Kuchlarimiz safilarida yigitlik burchini sharafla ado etayotgan, ishlab chiqarish, qurilish, ilm-fan, ta‘lim, tibbiyot, madaniyat, adabiyot va san‘at, sport sohalariga, zamonaviy IT-texnologiyalari yo‘nalishlariga dadil kirib borayotgan, katta orzu-umidlar bilan yashayotgan 18 milliondan ziyod o‘g‘il-qizlarimiz — bizning bebaho boyligimiz, oltin xaziramızdir.

“Yangi O‘zbekiston bunyodkori bo‘laman!”, “Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga munosib hissa qo‘shaman!”, degan yuksak maqsadlar farzandlarimiz qalbidan chuqur joy olib, ularning hayoti va faoliyati mazmuniga aylanib borayotgani bilan har qancha faxrlansak, arziydi.

Aziz yoshlar! Navqiron avlodimizning huquq va manfaatlarini ta‘minlash, o‘g‘il-qizlarimizning bilim olishi, mehnat qilishi, o‘z qobiliyat va iste‘dodini ro‘yobga chiqarishi uchun barcha sharoitlarni yaratish so‘nggi yillarda O‘zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgani va bu borada ulkan ishlar amalga oshirilayotgani sizlarga yaxshi ma‘lum, albatta.

O‘tgan qisqa davrda ushbu yo‘nalishda 100 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilinib, izchil amalga oshirilayotgani buni yaqqol tasdiqlaydi. Ayniqsa, yangilangan Konstitutsiyamizda yosh avlodning huquq va manfaatlarini aniq moddalar bilan muhrlab qo‘yilgani, hech shubhasiz, bu boradagi huquqiy bazani yanada kengaytirish,

amaliy ishlarimizni yangi bosqichga ko‘tarish imkonini bermoqda.

Shu o‘rinda yangi tahrirdagi Asosiy qonunimiz loyihasini muhokama etish va umumxalq referendumini orqali qabul qilishda yoshlarimiz alohida faollik ko‘rsatganini minnatdorlik bilan ta‘kidlab o‘tmoqchiman. Bu esa o‘g‘il-qizlarimizning Vatanimiz taqdiri va kelajagiga yuksak daxldorlik tuyg‘usi bilan yashayotgani, mamlakatimizdagi siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga yangicha ruh va mazmun olib kirayotganidan dalolat beradi.

Ayni paytda bunday faol munosabat butun xalqimiz qatori yoshlarimiz bilan ham doimiy muloqotni yo‘lga qo‘yib, fikr va istaklarini eshitayotganimiz, barcha dastur va rejalarimizni amalga oshirishda o‘g‘il-qizlarimizni keng jalb etib, ularga ishonch bildirayotganimiz natijasi, desak, to‘g‘ri bo‘ladi.

Shu ma‘noda, o‘tgan davrda yoshlar bilan ishlash bo‘yicha muloqot yangi — vertikal boshqaruv tizimi yaratildi.

Yurtimizdagi barcha mahallalarda yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etilib, bu vazifaga tashkilotchilik qobiliyatiga ega, tashabbuskor yigit-qizlar tanlab olindi. Mahallada bu tizim orqali yoshlarga 100 dan ortiq imkoniyatlar yaratildi.

“Yoshlar daftari” tizimi yo‘lga qo‘yilib, so‘nggi ikki yilda 798 ming nafarga yaqin yoshlarga qariyb 1 trillion so‘mlik yordamlar ko‘rsatildi. Jumladan, 53 ming nafar ehtiyojmand oilaga mansub talabaga o‘qish uchun kontrakt pullari to‘lab berildi.

Oliy ta‘lim muassasalari soni salkam yetti marta ko‘payib, 210 taga, qamrov darajasi esa 9 foizdan 38 foizga yetgani zamonaviy ilm va kasb sohalarini egallashda o‘g‘il-qizlarimiz uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda.

Oxirgi uch yilning o‘zida 250 ming nafar yoshga 6 trillion so‘mdan ziyod imtiyozli kreditlar ajratildi. Mamlakatimiz bo‘yicha 210 ta “Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini” tashkil etilib, 4 trillion so‘mlik 2,5 mingta loyihaga amalga oshirildi. Natijada, yosh tadbirkorlar soni 2 karra ko‘payib, 200 mingdan oshdi.

Biz nafaqat yoshlarimiz, balki butun jamiyatimiz hayotini tubdan o‘zgartirishga xizmat qilayotgan ana shunday ezgu ishlarimizni bundan buyon ham izchil davom ettiramiz. Shu borada yoshlarimizni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, siz, azizlarning salohiyat va

iqtidoringizni rivojlantirish va ro‘yobga chiqarish uchun imkoniyat va sharoitlarni yanada kengaytiramiz.

Qadri o‘g‘il-qizlarim!

Yurtimiz yoshlari yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, turli sohalarda dastlabki umidbaxsh natijalarni qo‘lga kiritayotgani albat barchamizni xursand qiladi.

O‘zbekistonlik o‘quvchilar o‘tgan yili xalqaro fan olimpiadalarida 7 ta oltin, 36 ta kumush va 38 ta bronza medalini qo‘lga kiritdilar.

Yosh sportchilarimiz esa xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etib, bu yil 247 ta oltin, 119 ta kumush, 110 ta bronza medal sohibiga aylandilar.

Keyingi yillarda Vatanimiz ravnaqiga munosib hissa qo‘shib kelayotgan ana shunday yoshlarning 758 nafari davlat mukofotlariga sazovor bo‘ldilar.

Albatta, biz aziz farzandlarimizning orzu-tilishlari, ilg‘or g‘oya va tashabbuslarini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha boshlagan ishlarimizni davom ettirib, ularni yangi, yanada yuksak bosqichga olib chiqamiz.

Ishonchim komil, jonajon Vatanimizga mehr va sadoqat bilan yashayotgan, ilm-fan va kasb-hunarlarini puxta egallab, hozirgi murakkab zamondagi keskin raqobatga tayyor bo‘lib voyaga yetayotgan yoshlarimiz har qanday baland marrani egallashga qodir.

Siz, azizlarni bugungi yoshlik, baxt va nafosat ayyomi bilan yana bir bor chin dildan tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, ulkan yutuq va omadlar tilayman.

Hech qachon unutmang, g‘alaba va baxt — astoydil intilganniki!

Sizlarning yutug‘ingiz — bu butun el-yurtimizning yutug‘i.

Xalqimiz sizlarga ishonadi, sizlarga tayanadi, sizlardan kuch-g‘ayrat, ruh va ilhom oladi.

O‘z oldingizga ulug‘ maqsadlar qo‘yib yashashdan aslo charchamang!

Yangi O‘zbekistonni albatta sizlar bilan, butun mamlakatimiz yoshlari bilan birga barpo etamiz.

Barchangizga bayram muborak bo‘lsin, qadri o‘g‘il-qizlarim!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
F A R M O N IYOSHLAR KUNI MUNOSABATI BILAN YURTIMIZNING FAOL VA TASHABBUSKOR
YOSH AVLOD VAKILLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimizda yosh avlodni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning davlat va jamiyat hayotidagi faolligini oshirish maqsadida o‘zining yuksak azmu shijoati, ijodiy va intellektual salohiyati, iste‘dod va qobiliyatini namoyon etib, halol va samarali mehnati, turli sohalarda erishgan yutuqlari bilan yurtimiz taraqqiyotiga, uning xalqaro nufuzini yanada yuksaltirishga munosib hissa qo‘shayotgan, ona Vatanimizga mehri va sadoqati, namunal xulqi va odobi hamda vatanparvarlik fazilatlarini bilan tengdoshlariga o‘rnak bo‘lib kelayotgan quydagi tashabbuskor va yetakchi yoshlarimiz “Kelajak bunyodkori” medali bilan mukofotlansin:

Mambetyarova Ulbosin Musatdin qizi — Qo‘ng‘iro‘t tumani “Mingyul’an” mahalla fuqarolar yig‘inidagi yoshlar yetakchisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Niyazimbetov Sherzod Kadirberdiyevich — Nukus tumanidagi “Biogumus” fermer xo‘jaligi boshlig‘i, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Yo‘ldoshev Raximjon Rafukjon o‘g‘ili — Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti agrolinjeneriya va gidromelioratsiya fakulteti dekanining yoshlar bilan ishlash bo‘yicha o‘rinbosari, Andijon viloyati

Ummataliyeva Moxloroy Zokirjon qizi — Baliqchi tumanidagi 14-umumiy o‘rta ta‘lim

maktabining geografiya fani o‘qituvchisi, Andijon viloyati

Gorev Petr Denisovich — Buxoro shahridagi “Buyuk ipak tekstil” mas‘uliyati cheklangan jamiyati bilyayneri, Buxoro viloyati

Yusupova Chinora Anvar qizi — Vobkent tumanidagi “Chinar Mushroom” tomorqa xizmat” mas‘uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Buxoro viloyati

Nabiqulova Nafisa O‘ktam qizi — “So‘g‘diyona-W” professional futbol klubining ayollar jamoasi futbolchisi, Jizzax viloyati

Davomi 2-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
Q A R O R I

“MARD O‘G‘LON” DAVLAT MUKOFOTI BILAN TAQDIRLASH TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimizda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlarda alohida faollik ko‘rsatib, o‘zining bilim va qobiliyati, intiluvchanligi, tashabbuskorligi va samarali mehnati bilan Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, Yangi O‘zbekistonning xalqaro miqyosdagi obro‘-e‘tiborini yanada oshirishga katta hissa qo‘shib kelayotgan, yuksak ma‘naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, keng dunyoqarash va yuqori salohiyatga ega, xalq manfaatini va yurt istiqbolini uchun mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan fidoyi va mard o‘g‘lonlarimizni munosib rag‘batlantirish maqsadida:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat

mukofotlari va geraldika bo‘yicha komissiyaning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining iqtidorli yigitlarini fan, ta‘lim, madaniyat, adabiyot, san‘at, sport, harbiy xizmat sohalari va huquqni muhofaza qilish organlaridagi faoliyatida erishgan alohida yutuqlari uchun “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti bilan taqdirlash to‘g‘risidagi takliflari ilovadagi ro‘yxatga muvofiq ma‘qullansin.

2. “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti bilan taqdirlanganlarga sovrindorlik diplomlari va ko‘krak nishonlari tan-tanali vaziyatda topshirilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti

sovrindorlarining har biriga barcha zaviy hisoblash miqdorining 50 baravari miqdorida pul mukofoti berilishini ta‘minlasin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi va boshqa ommaviy axborot vositalariga “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti sohiblarining ibratli faoliyati, ularning noyob iste‘dodi va erishgan yutuqlarini keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N.Aripov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari S.U.Umurzakov zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti**

Sh.MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2023-yil 29-iyun

“Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti bilan taqdirlanganlar ro‘yxati 2-betda.

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI TURKMANISTON
MILLIY YETAKCHISINI TABRIKLADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 29-iyun kuni Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov bilan telefon orqali muloqot qildi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Gurbanguli Berdimuhamedovni tavallud kuni bilan samimiy qutlab, unga mustahkam sog‘liq, baxt-saodat va katta muvaffaqiyatlar, qardosh turkman xalqiga tinchlik-osoyishtalik va ravnaq tiladi.

Uning bugungi Turkmanistonni rivojlantirish, mamlakatlarimiz o‘rtasida do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlashga qo‘shayotgan salmoqli hisssasi alohida qayd etildi.

O‘zbekiston va Turkmaniston yetakchilari Qurbon hayiti bilan bir-birini dildan tabrikladilar. O‘zbekiston Prezidenti yangi Arqadag‘ shahri

rasman ochilgani munosabati bilan ham Gurbanguli Berdimuhamedovni qutladi.

Telefon muloqoti chog‘ida mamlakatlarimiz o‘rtasida savdo, investitsiyalar, sanoat, energetika, qishloq xo‘jaligi va transport sohalarda ko‘p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari muhokama qilindi. Barcha darajalarda samarali muloqotlar, hududlararo va madaniy-gumanitar almashinuvlar faollashgani ta‘kidlandi.

Mintaqaviy hamkorlikning dolzarb jihatlari ko‘rib chiqildi.

O‘ZA

2023
9-IYUL
O‘ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
PREZIDENTI SAYLOVI

Gazetamizning bugungi sonida O‘zbekiston Ekologik partiyasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Abdushukur Hamzayevning saylovoldi tashviqoti bo‘yicha maqola chop etilmoqda. Mazkur maqola O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarga saylovoldi tashviqoti uchun ajratilgan bepul nashr maydoni doirasida e‘lon qilinmoqda.

3-betga qarang.

30-IYUN — YOSHLAR KUNI

“TO‘LQIN URGAN UMMONCHA BOR
YURAKDAGI TUG‘YONIM”YOSHLAR
KUNI

Mamlakatimizda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, sifatli ta‘lim-tarbiya olishi uchun mustahkam asoslar yaratish, iste‘dodini qo‘llab-quvvatlash, bandligini ta‘minlash, umuman, navqiron avlod vakillariga qaratilayotgan e‘tibor o‘z samarasini berayotir.



Davomi 5-betda

Husnidin ISAKOV

NUQTAYI NAZAR

ZAMONAVIY
SANOAT TARAQQIYOTI
Mis ishlab chiqarish salohiyatini
oshirish imkoniyatlari

Shu kunlarda poytaxtimiz yana bir xalqaro tadbir — tog‘-kon va metallurgiya sanoatini rivojlantirishga bag‘ishlangan konferensiyaga tayyorgarlik ko‘rmoqda. Mazkur nufuzli anjumanda dunyoning yetakchi geologiya, konchilik va mis ishlab chiqarish kompaniyalari vakillari, sohada ilmiy izlanish olib borayotgan olimlar, fan arboblari ishtirok etishi kutilmoqda.

Davomi 4-betda

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
F A R M O N IYOSHLAR KUNI MUNOSABATI BILAN YURTIMIZNING FAOL VA TASHABBUSKOR
YOSH AVLOD VAKILLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO'G'RSIDA

Boshlanishi 1-betda

Usmonova Madina Ulug'bek qizi — Jizzax shahridagi "Grand Super Star" mas'uliyati cheklangan jamiyati kran mashinisti, Jizzax viloyati

Mansurova Zarina Anvar qizi — Qarshi tumanidagi 71-umumiy o'rta ta'lim maktabining informatika fani o'qituvchisi, Qashqadaryo viloyati

Xaqberdiyev Abdumannon G'afurovich — Muborak gazni qayta ishlash zavodining sex operatori, Qashqadaryo viloyati

Ravshanova Gulhayo Azamatovna — Navoiy viloyati "Ziyokor" ayollar va yoshlar markazi rahbari

Raxmonov Suxrob Yusupovich — Navoiy shahridagi "Bur Kompresor Navoiy" mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Navoiy viloyati

Abdullayeva Zamira Muxtorjon qizi — Chortoq tumanidagi 22-umumiy o'rta ta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, Namangan viloyati

Rafikov Jaxongir Raximjonovich — Namangan shahridagi "Effortless Education Service" nodavlat ta'lim muassasasining "Start-21" o'quv markazi rahbari, Namangan viloyati

Balikova Charos Norbek qizi — Shashka bo'yicha O'zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi a'zosi, Samarqand viloyati

Maxkamtosheva Marhabo Abduraxmon qizi — Samarqand davlat universitetining 2-bosqich talabasi, Samarqand viloyati

Boqiyeva Feruza Sherali qizi — "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatining "O'zbekiston" lokomotiv deposi "Afrosiyob" yuqori tezayurur elektropoyezdi mashinisti yordamchisi, Sirdaryo viloyati

Toshbekov Jo'rabek Abdumalik o'g'li — Sirdaryo tumanidagi "Software-Developers-Group" mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Sirdaryo viloyati

Abdumalikov Umidjon Abdumalik o'g'li — Termiz tumanidagi "Surxon Termiz Umid" mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Surxondaryo viloyati

Ochildiyeva Dilnoza O'tkir qizi — Qiziriq tumanidagi "Barkamol avlod" bolalar maktabi to'garak rahbari, Surxondaryo viloyati

Abdullayev Ruslan Anvar o'g'li — Boks bo'y-

cha O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zosi, Toshkent viloyati

Qiyomova Marjona Murodxo'ja qizi — Parkent tumanidagi "Kumushkon" kutubxonasi rahbari, Toshkent viloyati

Ibroximov Jaxongirmirzo Ulug'bek o'g'li — Marg'ilon shahridagi "Muhandisona" mas'uliyati cheklangan jamiyati direktori, Farg'ona viloyati

Turg'unova Nodiraxon Abduraxim qizi — Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining 1-bosqich magistranti, Farg'ona viloyati

Qalandarov Shohruhbek Mirzabek o'g'li — Xonqa tumanidagi "Xonqa chorva kapital" mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Xorazm viloyati

Mashariyova Gul Ra'no Ozodovna — "Edu Action" IELTS test markazining Xorazm viloyati bo'yicha bosh koordinatori

Achilova Diyora Alisherovna — Toshkent pediatriya tibbiyot institutining xalqaro fakulteti yoshlar yetakchisi

Umirkazov Shahzod Baxtiyor o'g'li — Yunusobod tumanidagi "Tass Vision" mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischi, Toshkent shahri

Asqaraliyeva Mahliyo Akmaljon qizi — O'zbek Milliy akademik drama teatri aktrisasi

Jo'raqulova Marjona Sadridin qizi — O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining "Qizlar ovozi" klubi rahbari

Ikromova Taxmina Izatulloevna — Gimnastika bo'yicha Respublika oliy sport mahorati maktabining badiiy gimnastika bo'yicha sportchisi

Kadirov Azamat Azizovich — "Uzbekistan airways" aksiyadorlik jamiyatining Parvozlar xavfsizligi va sifat ta'minoti boshqarmasi "A-320" havo kemasi uchuvchi-noziri

Muxsumov Javlonbek Xusniddin o'g'li — Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabning xalqaro olimpiada zaxiralari markazi o'qituvchisi

Raxmonova Nargizaxon Baxtiyorjon qizi — O'zbek milliy maqom san'ati markazining Yunus Rajabiy nomidagi "Maqom" ansambli artisti

Safarov Xudoynazar Sunnat o'g'li — "O'zbekgeologiyaqidiruv" aksiyadorlik jamiyatining Zarafshon dala geologiya-qidiruv ekspeditsiyasi yer osti ishlari geologi

Usmanova Maftuna Anvarovna — Toshkent shahridagi "Sharoit plyus" nogironlar jamoati birlashmasining loyihalar koordinatori

Xamroyev Sardorbek Islom o'g'li — O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, yozuvchi

Elmurodova Nigina Baxtiyor qizi — Akademik V.Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining buyrak transplantsiyasi va reabilitatsiyasi bo'limi jarrohi

O'zbekiston Respublikasi
PrezidentiToshkent shahri,
2023-yil 29-iyun

Sh. MIRZIYOYEV

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
2023-yil 29-iyundagi PQ-199-son qaroriga ilova"Mard o'g'lon" davlat mukofoti bilan taqdirlanganlar
RO'YXATI

Yendirbayev Davronbek Gulman ug'li — Nukus shahridagi 12-bolalar musiqa va san'at maktabining baxshichilik bo'limi o'qituvchisi (Qoraqalpog'iston Respublikasi)

Mambetsharipov Yusup Raxatovich — O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining doktoranti (Qoraqalpog'iston Respublikasi)

Azimov Sarvarbek Qayumjon o'g'li — Andijon mashinasozlik institutining 1-bosqich magistranti (Andijon viloyati)

Mo'minjonov Mirjalol Muqimjon o'g'li — Andijon davlat universitetining kimyo kafedrasida katta o'qituvchisi (Andijon viloyati)

Sadulloev Anvarbek Oybek o'g'li — Peshku tumanidagi 18-umumiy o'rta ta'lim maktabining 11-sinf o'quvchisi (Buxoro viloyati)

Sodikov Muxammadali Kaxramonovich — Buxoro shahridagi "AD Astra" o'quv markazi rahbari (Buxoro viloyati)

Qodirov Umidjon Lapas o'g'li — Jizzax davlat pedagogika institutining 3-bosqich talabasi (Jizzax viloyati)

Rayimov Furqatjon Farxod o'g'li — Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutining 4-bosqich talabasi (Jizzax viloyati)

Nomurodov Olimjon Obidjon o'g'li — Navoiy viloyati Ichki ishlar boshqarmasining tezkor vazifalarni bajaruvchi safarbar otryadi katta mutaxassisi (Qashqadaryo viloyati)

Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li — O'zbekiston Milliy universitetining 1-bosqich magistranti (Qashqadaryo viloyati)

Ismoilov Abduqodir Dilshod o'g'li — Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining 1-bosqich talabasi (Navoiy viloyati)

Xaydarov Xumoyun Mashariy o'g'li — "Mash X Industry" mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari (Navoiy viloyati)

Nasriddinov Voxidjon Maxmamsoli o'g'li — O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchisi (Namangan viloyati)

Odashov Zayniddin Zuxriddin o'g'li — Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtining guruh komandiri (Namangan viloyati)

Zakirov Ruslan Olegovich — O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasi huzuridagi markaziy haydovchi-qutqaruvchisi (Samarqand viloyati)

Islomov Sherbek Mahmud o'g'li — Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 1-bosqich talabasi (Samarqand viloyati)

Bahrayev Bahrom Azmuddin o'g'li — Sardoba tumanidagi 18-umumiy o'rta ta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi (Sirdaryo viloyati)

Krasnov Anatoliy Viktorovich — Sirdaryo viloyati rus sporti turlariga ixtisoslashtirilgan sport

maktabining akademik eshak eshish bo'yicha murabbiysi (Sirdaryo viloyati)

Tursunov Anvar Maxmadiy o'g'li — O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining harbiy qismi guruh mutaxassisi (Surxondaryo viloyati)

Kurramov Abbas Baxramovich — Respublika "Barkamol avlod" bolalar maktabi uslubchisi (Surxondaryo viloyati)

Abdug'aniyev Turdali Abdukayum o'g'li — O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining Maxsus vazifalar bo'yicha respublika qutqaruv markazi kinolog-qutqaruvchisi (Toshkent viloyati)

Yoqubov Doston Jaloliddin o'g'li — O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining Toshkent viloyati bo'yicha boshqarmasi harbiy qismi guruh komandiri (Toshkent viloyati)

Yigitaliyev Saidasror Shavkat o'g'li — Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat

akademik katta teatrlarining opera ijrochisi (Farg'ona viloyati)

Melikuziyev Sarvarbek Maxmud o'g'li — "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislar instituti" Milliy tadqiqot universitetining tayanch doktoranti (Farg'ona viloyati)

Amatboyev Og'abek Shonazar o'g'li — O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining 4-bosqich talabasi (Xorazm viloyati)

Karimov Javohir Abdulkarim o'g'li — Xiva shahridagi Ogahiy nomidagi ijod maktabining 9-sinf o'quvchisi (Xorazm viloyati)

Maxmudov Abdullox Alisher o'g'li — Uchtepa tumanidagi 81-umumiy o'rta ta'lim maktabining 10-sinf o'quvchisi (Toshkent shahri)

Mirzaaxmedov Miraziz Mirvixod o'g'li — O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "Yoshlar" radiokanali muharriri bosh muharriri (Toshkent shahri)

QURBON HAYITI — INSON QADRI VA IJTIMOY HIMOYANI
ULUG'LASHGA QARATILGAN BAYRAMSadiq TOSHBOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Din ishlari bo'yicha
qo'mitasi raisi

Bu yilgi bayram, ayniqsa, o'zgacha shukuh va fayz bilan o'tmoqda. Buni odamlarning yuz-ko'zlaridagi quvonch va tilidagi shukronalik so'zlaridan yaqqol anglash mumkin.

Yana bir muhim jihat, Qurbon hayiti munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga ko'plab xorijiy mamlakatlardan va xalqaro tashkilotlar rahbarlari nomidan qutlov maktablari kelishi davom etmoqda, o'z navbatida, Prezidentimiz tomonidan ham chet el davlatlari rahbarlariga tabriknomalar yuborilmoqda. Bayram tom ma'noda o'zaro mehr-oqibat ramzi o'laroq, xalqaro aloqalarning yanada mustahkamlanishiga sabab bo'lmoqda.

Shuni alohida aytish lozimki, Prezidentning O'zbekiston xalqiga yo'llagan Qurbon hayiti tabrigi yurtidoshlarimizni benihoya xursand qildi, ayniqsa, muborak manzillarda Haj amallarini bajarayotgan hojjarimizga haqiqiy bayram kayfiyatini baxsh etdi.

Bayram tabrigida xalqimizning olijanoq qadriyatlarini asrab-avaylash, ajdod-

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga muvofiq, xalqimizning ma'naviy hayotida alohida o'rin tutadigan, muqaddas islom dinining ezgu g'oyalari o'zida yaqqol ifoda etadigan Iyd al-Adho — Qurbon hayiti jamiyatimizda insonparvarlik, o'zaro hurmat, mehr-oqibat, saxovat va shukronalik tuyg'ularini kuchaytirish, yoshlarimizda yuksak fazilatlarini kamol toptirish maqsadida mamlakatimizda bayram sifatida keng nishonlanmoqda.

larimizning boy ilmiy merosini tiklash va faol targ'ib etish, buyuk ajdodlarimizning tabarruk qadamjolarini o'zida yaqqol ifoda etadigan Iyd al-Adho — Qurbon hayiti jamiyatimizda insonparvarlik, o'zaro hurmat, mehr-oqibat, saxovat va shukronalik tuyg'ularini kuchaytirish, yoshlarimizda yuksak fazilatlarini kamol toptirish maqsadida mamlakatimizda bayram sifatida keng nishonlanmoqda.

Bugun mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga chiqdi. Buni yangi O'zbekistonning tashqi va ichki siyosatidan tortib, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy hamda diniy-ma'rifiy sohalaridagi tub islohotlar misolida ham yaqqol ko'rish mumkin.

Mamlakatimizda turli millat va konfessiyalar o'rtasida o'zaro hurmat, birdamlik va hamkorlik muhitini mustahkamlash, madaniyatlararo muloqotni qo'llab-quvvatlash hamda tinchlik-totuvlikni ta'minlashga qaratilgan izchil, puxta o'yilgan siyosat xalqaro hamjamiyat tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlanmoqda.

E'tiborsiz, yurtimizda inson qadri uchun amalga oshirilayotgan ishlarni har jahdda ko'rish mumkin. Xususan, turli g'arazli kuchlar ta'sirida diniy-ekstremizm faoliyatiga adashib kirib qolgan insonlarning kechirilishi yoki "Mehr" operatsiyalari doirasida Suriya, Iroq va Afg'onistonda og'ir ahvolda tushib, chorasiz qolgan ayollar va bolalarining O'zbekistonga olib kelinishi, ular yangilanayotgan, inson erki va huquqlari qadrlanadigan yurtimizda yangi hayot boshlagani buning yaqqol misolidir.

Shuningdek, adashib jinoyatga qo'l urgan, lekin aybini chuqur anglab, tuzalish

yo'lga qat'iy o'tgan fuqarolarning afv etilishi xalqimizga xos ezgulik, bag'rikenglik, insonparvarlik, mehr-oqibat va kechirimli bo'lish kabi olijanoq fazilatlarining yorqin ifodasidir.

Vijdon va din erkinligini ta'minlash O'zbekiston Respublikasi olib borayotgan siyosatning ustuvor vazifalaridan sanaladi. Shu bois, so'ngi yillarda respublikamizda fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lami demokratik islohotlar olib borilmoqda. Bu borada vijdon erkinligining huquqiy asoslari mustahkamlanib, qonunchilikning inson huquqlariga oid xalqaro andozalar asosida takomillashtirilgan ham yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasidir.

Yana bir asosiy jihat, diniy ta'lim tizimidagi yangiliklar alohida muhim o'rin tutadi. Islom dini rivoji yo'lida beqiyos xizmat qilgan buyuk muhaddis bobolarimizning diniy va ilmiy-ma'naviy merosini o'rganish, targ'ib etish maqsadida Samarqandda Imom Buxoriy, Surxondaryoda Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, shuningdek, Toshkentda O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Imom Moturiyiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi ish olib bormoqda. Shuningdek, ucha yirik oliy diniy ta'lim va 10 ta o'rta maxsus islom bilim yurtlari faoliyat yuritmoqda.

Qashqadaryo viloyatida kalam ilmining atqoli namoyandasi Abu Muin Nasafiy, Namangan viloyatida tasavvuf ta'limotining yirik vakili Sulton Uveys Qarany, Toshkent shahrida Suzuk ota yodgorlik majmualari bunyod etilgani, ko'plab masjid, madrasa va diniy obidalar qayta qurilayotgani yoki ta'mirlanayotgani, ayniqsa, Imom Buxoriy hazratlarining Samarqand viloyatidagi yodgorlik majmualarini mutlaqo yangi,



zamonaviy holda barpo etish ishlari shiddat bilan davom etayotgani hamda ziyoratga kelayotgan xalqaro ekspert va xorijiy mehmonlarning yuksak e'tirofi va hayratiga sabab bo'layotgani quvonarli hol, albatta.

Qolaversa, o'zining mahobati va ilmiy salohiyati tufayli ma'rifat maskaniga aylinishi kutilayotgan — O'zbekiston Islom sivilizatsiyasi markazi xususida alohida to'xtalib o'tish joiz. Zotan, xalqimizning boy diniy-ma'naviy merosini chuqur o'rganish va dunyoga targ'ib etish, yosh avlodni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda beqiyos o'rin tutadigan mazkur ilm-ma'rifat markazi hozirdanoq o'z mahobati, amalga oshirayotgan ma'naviy, ilmiy tadqiqot faoliyati bilan butun dunyo havasini keltirmoqda.

Yangi O'zbekistonning diniy-ma'rifiy sohadagi islohotlari ko'z ongimizda o'zining ko'ngillariga quvonch eltuvchi epkinlari bilan ro'y-rost namoyon bo'lyapti. Bugun davlatimizning e'tiqod erkinligi, diniy

bag'rikenglik, millatlararo totuvlik, inson qadri va ijtimoiy himoya borasida, ezgu siyosati xalqaro hamjamiyatning ham e'tibori ni qozondi.

Shu o'rinda, mavzuga aloqador yana bir e'tiborli jihat: Haj va Umra ziyoratlari sifat va son jihatidan yangi bosqichda tashkil etilayotgani diqqatga sazovor.

Yurtidoshlarimiz muborak Umra va Haj amallarini ado etishi uchun yaratilayotgan qulayliklar yildan-yilga yaxshilanib bormoqda. So'ngi yillarda O'zbekistondan Hajga boruvchilar soni keskin ortdi. 2019-yilda 7200 nafar yurtidoshimizga bu baxt nasib etgan bo'lsa, 2022-yilda bu raqam 12 000 ni tashkil etdi. Saudiya Arabistoni tomoni bilan olib borilgan muzokaralardan so'ng joriy yil O'zbekiston fuqarolari uchun umumiy haj kvotasi 15 000 nafar etib belgilandi.

Joriy Haj mavsumiga kvotaning oshirilishi, shubhasiz, yurtimiz ziyoratchilari uchun katta xushxabar bo'ldi. Bu yil yurtidoshlarimiz O'zbekiston tarixida birinchi

marotaba bunday katta adadda ziyoratga bordi.

Qolaversa, shu yil eshitish va ko'rishda nuqsoni bo'lgan yurtidoshlarimizning 34 nafari, shuningdek, 1400 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlarning umra ziyoratiga borib-kelishi tom ma'noda inson qadri va ijtimoiy himoya borasidagi ezgu siyosatning mahsulidir.

Albatta, mazkur keng ko'lami islohotlar, yengilliklar, qulayliklar zamirida ko'pmillatli xalqimiz hayoti, farovon turmushi, yorqin istiqbol, farzandlar kamoloti va orzu-istaklari ro'yobi mujassamdird.

Bir so'z bilan aytganda, bugungi kunda keng ko'lami islohot va tub o'zgarishlar natijasida yangilanib borayotgan yurtimizda xalq bilan muloqot, inson huquq va manfaatlarini, jumladan, vijdon erkinligini ta'minlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, bu borada ulkan chora-tadbirlar amalga oshirilayotgani, ko'lami va miqyosi tobora kengayib borayotgan bunday amaliy ishlar yangi O'zbekistonda barpo etish, yurtimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligini oshirishdek ezgu maqsadlarimizga uyg'un va hamohang bo'lib, barcha yurtidoshlarimizni ana shu g'oyalarga atrofida yanada birlashtirishga xizmat qilayotganini alohida ta'kidlash lozim.

Mehr-oqibatli, saxovatli xalqimizga, tinch-osoyishta yurtimizga mana shunday bayramlar yarashadi. Binobarin, buning shukronasini qilish, yangi bunyodkorlik ishlarida birdam bo'lish, buyuk kelajak sari shahdnam qadamlar tashlash, yangi O'zbekistonda barpo etishda bir yoqadon bosh chiqarib, birlashish — bizni maqsad sari olib boruvchi yagona yo'l'dir.

O'z navbatida, taraqqiyotimizning yangi bosqichida barcha sohalar qatorini diniy-ma'rifiy yo'nalishda amalga oshirilgan islohotlar ko'lami va ahamiyati jihatidan g'oyat muhim bo'lib, O'zbekistonning musulmon dunyosida islom sivilizatsiyasi markazi, ilm-ma'rifat o'chog'i sifatida e'tirof etilishiga sabab bo'lmoqda.

Ishonchimiz komilki, O'zbekistonda 2023-yil davomida kuzatilayotgan ham tarixiy, ham ezgu tashabbuslar, shubhasiz, yurt ravnaqi va istiqboliga xizmat qiluvchi choratadbirlarning boshlanishi.

Inson manfaatlarini, ijtimoiy himoya masalasi pirovard maqsadga aylangan jonjon yurtimizning har kuni xushxabar va ezgu voyealarga boy bo'laversin.



BUGUN VA KELAJAK OLDIDAGI MAS'ULIYAT HISSI

EKOLOGIK QADRIYATLAR USTUVOR, INSON HUQUQLARI VA ERKINLIK LARI HIMOYASI ISHONCHLI BO'LGAN DASTURIY MAQSADLARDA AKS ETGAN

Dunyoda ro'y berayotgan muhim va global o'zgarishlar bizdan istiqbolli faoliyat samaradorligini oshirishni talab etmoqda. Endilikda nafaqat bugungi kun, balki yaqin kelajagimiz hamda kelgusi avlodlar manfaatlarini ko'zlab qarorlar qabul qilish va faoliyat dasturimizni belgilab olish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etib turibdi.

Hayotimizda yuz berayotgan iqtisodiy-ijtimoiy masalalarni aniq va samarali hal qilish uchun kompleks yondashuv zarurati inkor etib bo'lmaydi. Ishaq chiqarish, sanoat, qishloq xo'jaligi, sud-huquq tizimi, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalaridagi hayotiy muammolarga yechim topishda muhtarak holda harakat qilish bugungi kunimizning asosiy talabidir.

Shu nuqtayi nazardan, bugun jamiyat hayotiga oid barcha savollarga javob topishda ayni shunday yondashuv ehtiyoji yuzaga kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga Ekologik partiyadan nomzod Abdushukur Hamzayevning Saylovoldi dasturida bularning barchasi o'z ifodasini topgan, jamiyatimiz hayotida muhim bo'lib turgan — davlat va jamiyat boshqaruvi, sud-huquq tizimida islohotlar samaradorligini oshirish, sog'liqni saqlash, ta'lim, ilm-fan va madaniy-ma'rifiy sohalarini yanada rivojlantirish, tabiiy-texnologik holatlar oqibatida ro'y berishi mumkin bo'lgan barcha vaziyatlar yuzasidan tizimli ishlab olib borish, shuningdek, tashqi siyosat va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish yo'nalishlarida aniq vazifalar ilgari surilayotgan xalqimiz tomonidan iliq qarshi olinmoqda.

Nomzod, birinchi navbatda, O'zbekiston va jahon miqyosida muhim sanaloyatgan ekologik muammolar masalasiga katta e'tibor qaratgan. Soha bo'yicha uzoq yillik tajribaga ega olim sifatida mavjud ekologik muammolarning yechimi borasida o'zining konstruktiv takliflarini saylovchilar e'tiboriga taqdim qilgan.

Jumladan, bugungi kunda yurtimiz hududida tez-tez uchrayotgan chang va qum bo'ronlari inson salomatligi hamda atrof-muhit tozaligiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatayotgani ko'pchilikni tashvishga solib turibdi.

O'zbekiston Ekologik partiyasidan Prezidentlikka nomzod Abdushukur Hamzayev atrof-muhit, qolaversa, insonlar salomatligiga jiddiy xavf solishi mumkin bo'lgan mana shunday hodisa oqibatlarini yumshatish, ularning insoniyatga, o'simlik va hayvonot dunyosiga keltiradigan zararni kamaytirish choralarini ko'rish bo'yicha bir qator dasturiy maqsadlarni ilgari surmoqda. Bunday tabiiy hodisalarni oqibatlarini yumshatish uchun ko'rilishi kerak bo'lgan zarur choralarini taklif etmoqda.

Xususan: — **Noivoi, Buxoro, Xorazm viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarida** qum ko'chishining oldini olish maqsadida yashil belbog'lar va yashil qalqonlar barpo etish ishlarini jadallashirish; — **qum va tuz bo'ronlari** ko'tarilishi xavfi yuqori bo'lgan hududlar xaritalari ishlab chiqilib, bunday hududlarda maxsus dasturlar asosida yashil ihtozozlar barpo etish.

Mintaqada qurg'oqchilik, yashil masaning kamayishi, cho'llashishning jadali davom etayotgani va hodisalarning asosiy sababchisidir. Ayniqsa, iqlim to'atiligi- ni saqlab turgan Orol dengizining qurishi, yashilning nihoyatda kamayib ketishi ham chang va qum bo'ronlari tez-tez takrorlanishiga olib kelmoqda.

Respublikaning shimoli, cho'llari va janubida odatiy hol bo'lib qolgan bu kabi munazaralar endi markaziy hududlarga ham ko'chayotgani xavotirlidir. Shuning uchun ham aynan Markaziy Osiyo mintaqasi, ayniqsa, bizning mamlakatimiz uchun bog'-u roglar va yashil hududlarning ko'payishi judayam muhim.

Misol uchun, bundan bir necha o'n yillar avval yashil maydonlar kishi boshiga 50-60 kvadrat metrni tashkil qilgan. Ammo boshqarilgan va muvaznatga qat'iy amal qilish, xalqimizni tabiat ofatlaridan asrashda muhim qadam bo'lishi shubhasiz.

Saylovoldi dasturida nafaqat ekologik masalalar, balki hayotimizda muhim o'rin tutuvchi davlat va jamiyat boshqaruvi, sud-huquq tizimida islohotlar samaradorligini oshirish borasida ham zarur takliflar ilgari surilmoqda.

Fuqarolar eng ko'p duch keladigan va eng ko'p murojaat qilinadigan sohalaridan biri ham aynan shu — sud-huquq sohasi ekani hech birimizga sir emas. Ushbu sohada qiyosiy muammasi to'g'ri, aniq va bir xilda ishlashiga erishish jamiyat farovonligini ta'minlashda juda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda, nomzodning Saylovoldi dasturida inson huquqlari va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, so'z erkinligini qo'llab-quvvatlash va OAV faoliyati kafolatlarini mustahkamlash, odil sudlovning samaradorligini oshirish borasidagi islohotlarni izchil davom ettirishga alohida to'xtalib o'tilgan.

Prezidentlikka nomzod fuqarolar- ning hayot sifatini pasaytiradigan va atrof-muhitga zarar yetkazuvchi har



hayoti uchun katta xavf tug'diradi va og'ir yo'qotishlarga olib keladi. Nisbatan seysmik faol bo'lgan Markaziy Osiyo hududida zilzila o'choqlari mavjud bo'lib, turli darajadagi yer silkinishlari muntazam sodir bo'lib turadi.

Albatta, bunday tabiiy hodisalarning oldini olish yoki qachon yuz berishini aniq bashorat qilishning iloji yo'q. Faqatgina ularga tayyor turish orqali oqibatlarini, yo'qotishlarni kamaytirish mumkin.

Prezidentlikka nomzod Abdushukur Hamzayev Saylovoldi dasturidagi tabiiy-texnologik holatlar oqibatida ro'y berishi mumkin bo'lgan barcha vaziyatlar yuzasidan tizimli ishlab olib borishga qaratilgan alohida yo'nalish ham ayni shu maqsadlariga qaratilgan.

Unda hududlarning seysmik faolligini hisobga olib, ko'p qavatli uylar va ijtimoiy soha obyektlarini qurish talablarini takomillashtirish taklif etilmoqda. Bu, bir tomondan, qurilish ishlaridagi qonunbuzilishlarning oldini olish, binolar zilzilabardoshligini ta'minlashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, xalqimizning bexavotir, halovlat bilan yashashini ta'minlaydi.

So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan ulkan qurilishlar jarayonida bazan sifatsiz, talabga javob bermaydigan turar joylar ham qurilgani sir emas.

Qurilish sohasida davlat nazorati bo'yicha amalga oshirilgan ishlar natijalariga ko'ra, o'tgan yili seysmik chidamliligiga qo'yiladigan talablarga javob berishi, qurilayotgan obyektlarning qurilish me'yorlari va qoidalar talablarga muvofiqi hamda sifatsiz qurilish materiallari aniqlangan holda qurilish-montaj ishlarini to'xtatishlar 498 tani tashkil etgan. Qurilish normalariga rioya qilmagan holatda qurilish-montaj ishlarini olib borilgani sababli 60 obyekt buzdirilgan.

Bundan tashqari, tog' va tog'oldi hududlarida ro'y beradigan qor ko'chiklari, sel xavfini kamaytirish, suv omborlarining qirg'oq bo'ylarini mustahkamlash, yer ko'chishi, o'p'qonlar va jarliklar hosil bo'lishi oldi olinishiga alohida e'tibor qaratiladi. Qurg'oqchilik va stress omillarga chidamli o'simlik va hayvon turlari ko'paytiriladi, yangi nav va zotlar yaratish rag'batlantiriladi. Nomzod dasturida ko'zda tutilgan ushbu masala inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarda me'yor va muvaznatga qat'iy amal qilish, xalqimizni tabiat ofatlaridan asrashda muhim qadam bo'lishi shubhasiz.

Saylovoldi dasturida nafaqat ekologik masalalar, balki hayotimizda muhim o'rin tutuvchi davlat va jamiyat boshqaruvi, sud-huquq tizimida islohotlar samaradorligini oshirish borasida ham zarur takliflar ilgari surilmoqda.

Fuqarolar eng ko'p duch keladigan va eng ko'p murojaat qilinadigan sohalaridan biri ham aynan shu — sud-huquq sohasi ekani hech birimizga sir emas. Ushbu sohada qiyosiy muammasi to'g'ri, aniq va bir xilda ishlashiga erishish jamiyat farovonligini ta'minlashda juda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda, nomzodning Saylovoldi dasturida inson huquqlari va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, so'z erkinligini qo'llab-quvvatlash va OAV faoliyati kafolatlarini mustahkamlash, odil sudlovning samaradorligini oshirish borasidagi islohotlarni izchil davom ettirishga alohida to'xtalib o'tilgan.

Prezidentlikka nomzod fuqarolar- ning hayot sifatini pasaytiradigan va atrof-muhitga zarar yetkazuvchi har

qanday iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan moliyalashtirishni taqiqlashni taklif etmoqda. Demak, har qanday loyihani hayotga tatbiq etishda atrof-muhit masalasi birinchi planga qo'yishda davlatning o'zi namuna bo'ladi. Buning ortidan esa biznes, ishlab chiqarish, qurilish va boshqa ko'plab sohalarida e'tiborsiz darajaga tushib qolgan daraxtlar, o'simliklar, yashil hududlarni asrash va himoya qilish masalalari o'z-o'zidan kuchayadi. Ya'ni Saylovoldi dasturida ko'zda tutilganidek, davlat boshqaruvi tizimida ekologiya sohasidagi ma'muriy islohotlar jadal amalga oshadi.

Saylovoldi platformada sudlar mustaqilligi kafolatlarini yanada mustahkamlash, sud qarorlari ijrosini ta'minlashni kuchaytirish ko'zda tutilgan. Bu, ayniqsa, dolzarb bo'lib, atrof-muhit muhofazasiga oid ko'plab sud ishlarining asosiy cho'zilishi, vaqtida ijro qilinmasligi va oqibatda tabiatga yetkazilgan zarar miqdori oshib ketishi yoki oldi olinmasligi kabi holatlarga ham chek qo'yadi.

Bugungi zamonning talabi — sud jarayonlarida tenglik va tortishuv tamoyil- lari to'liq joriy qilinishi kerak. Shundayna ko'rilayotgan ishlarda har bir omil hisobga olinadi, adolati hukm chiqarish imkoniyati kengayadi. Sud jarayonida adolat uchun tortishuvlar bo'lishi advokatura institutining qanchalik mustaqil va ishonchli ishlagishiga bog'liq, albatta. Shu bois, Prezidentlikka nomzod advokaturani mustaqil, huquqni ishonchli himoya qiluvchi institutga aylantirishni taklif etmoqda. Natijada nafaqat xalqimizning sudlarga bo'lgan ishonchi orta boshlaydi, balki jamiyatga huquqiy tafakkur oshadi, qonun ustuvorligi ta'minlanadi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksdagi eskirgan javobgarlik choralarini bekor qilish, ma'muriy organlar tomoni- dan jarima qo'llash qisqartirilib, sudlarga kengroq vakolat berish borasidagi takliflar ham ko'pchilikning ayni dildagi gap, desak xato bo'lmaydi. Chunki faqat jarima qo'llash va uni undirish bilan muammo to'la-to'kis yechim topmaydi. Eng odilona hukm sud orqali qabul qilinishi kerak.

Saylovoldi dasturiga ko'ra, malakali yuridik yordam va xizmat ko'rsatish sifati oshiriladi, ekolog-huquqshunoslarni tayyorlash tizimi takomillashtiriladi. Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashga solish qonunosti hujjatlaridan qonun asosida tartibga solish- ga o'tkaziladi. Buning natijasida qonunlar- ning to'g'ridan-to'g'ri ishlash mexanizmi yaratilib, huquqiy nigilizmning oldi olinadi.

Har bir mamlakat rivojlanishining qaysi strategik yo'lidan bormasin, korruptsiya uni izdan chiqaruvchi, jamiyatni tanazzulga yetaklovchi og'ir illat.

Prezidentlikka nomzod Abdushukur Hamzayevning Saylovoldi dasturida korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish faoliyatimizning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi alohida qayd etilgan. Nomzodimiz muammoga real yechim sifati- da quyidagilarni taklif qilmoqda: jamoatchilik nazorati va jamoatchilik eshituvu instituti rivojlantiriladi; barcha tizimdagi davlat idoralari faoliya- tida, davlat xaridlarida ochiqlik va shaffoflik- ni kengaytirish choralarini kuchaytiriladi; davlat xizmatchilari faoliyatining iqtisodiy va ijtimoiy kafolatlarini kuchaytiriladi.

Darhaqiqat, korruptsiya jamiyat hayo- tining barcha jabhalarini izdan chiqaruvchi xavfli ijtimoiy illatdir. Uni tub ildizi bilan yo'q qilishga qarshi kurash hamisha har biri-

mizning asosiy maqsadimiz bo'lmog'i lozim. Ayniqsa, har bir rahbarning bu masalada shaxsiy o'mak bo'lishi va kurashuvchanlik pozitsiyasi juda muhim hisoblanadi.

Nomzod o'z Saylovoldi dasturida, shu- ningdek, sog'liqni saqlash, ta'lim, ilm-fan va madaniy-ma'rifiy sohalarini yanada rivojlantirish borasida ham alohida vazifalar belilab olganini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sifati tubdan yaxshilash va xalq tabo- batini yanada rivojlantirish masalalari har bir fuqaro uchun alohida ahamiyatga ega. Ushbu vazifalarni amalga oshirishning ha- yotiy mexanizmi sifatida dori vositalarini ul- gurji va chakana realizatsiya qilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslarning litsenzi- ya talablariga rioya etishlar ustidan nazorat kuchaytirilishi hamda tibbiyot sohasida stomatologik xizmatlar narxini pasaytirish maqsadida davlat stomatologik klinika- lari rivojlantirish lozimligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, quyidagi jihatlarga e'tibor qaralishi muhimligini alohida sanab o'tadi: sanitar-ya-epidemiologiya sohasida real xavf-xatarlarni prognoz qilish, baho- lash, yuqumli kasalliklar tibbiy o'choqlari ustidan epidemiologik monitoring va epidemiyaga qarshi profilaktik tadbirlar majmui amalga oshiriladi;

aholining kam ta'minlangan qatlamlari va ekologik nomaqbul hududlarda istiqomat qiluvchilar uchun ijtimoiy tibbiy xizmat ko'rsatishning huquqiy asoslarini ishlab chiqiladi va joriy etiladi, xalq tabobatini rivojlantirish choralarini ko'riladi;

sog'lom turmush tarzi keng targ'ib etila- di va ommiy sport turlari yanada rivoj- landiriladi, sog'lom o'quv-talim madaniyatini joriy etish bo'yicha kompleks chora-tad- birlar amalga oshiriladi;

ekologik omillarning inson sog'lig'iga salbiy ta'sirini bartaraf etish, sifati tibbiy xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan tibbiy sug'urta mexanizmlari joriy etiladi.

Dasturdan o'rin olgan ushbu masalalar- ning barchasi inson salomatligini ta'minlash va muhofaza qilishda, birinchi navbatda, sog'lom ekologik muhit hamda samarali tib- biy xizmat zarurati o'zida mujassam etgan.

Maktabgacha ta'lim, xalq ta'limi, kasb-hu- nar ta'limi hamda oliy ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ham nomzodning Saylovoldi dasturida puxta ish- lab chiqilganini ta'kidlab o'tish o'rindirli. O't- gan yillar davomida ta'lim tizimi bir necha bor isloh qilingan bo'lsa-da, sohada yechimini kutayotgan masalalar yetarli.

Nomzod taqdim etayotgan dasturiy maqsadlarda O'zbekiston Respublikasi Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini hayotga izchil va samarali tatbiq etish ko'zda tutilmoqda. Buning ahamiyati jihatidan shundaki, uzluksiz ta'lim tizimida tah- sil oylayotgan o'quvchi va talaba yoshlarida ekologik madaniyatni shakllantirishdan, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi so- hasiga sarflanayotgan har qancha mab- lag'lar bilan muammolarni bartaraf etib bo'lmaydi. Shuning uchun ham mamlakatimiz- da uzluksiz ekologik ta'lim tizimini sama- rali yo'lga qo'yish orqali aholining ekologik madaniyatini oshirish juda dolzarb masala hisoblanadi.

Saylovoldi dasturiga ko'ra, uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida ekologik ta'lim-tarbiya tamoyillari keng joriy etiladi, yoshlarning ekologik madaniyatini yuksalti- riladi. Maktabgacha va maktab ta'limi muas- sasalari tarbiyalanuvchi va o'quvchilari

O'zbekiston Ekologik partiyasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Abdushukur Hamzayev Saylovoldi dasturidan:

- Biz ekologik qadriyatlar ustuvorlikka aylanadigan, inson huquqlari va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, so'z erkinligini qo'llab-quvvatlash va OAV faoliyati kafolatlarini mustahkamlash, odil sudlovning samaradorligini oshirish borasidagi islohotlarni izchil davom ettiramiz.
- Korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish faoliyatimizning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'ladi. Bunda jamoatchilik nazorati va jamoatchilik eshituvu instituti rivojlantiriladi, barcha tizimdagi davlat idoralari faoliyatida, davlat xaridlarida ochiqlik va shaffoflikni kengaytirish choralarini kuchaytiriladi. Davlat xizmatchilari faoliyatining iqtisodiy va ijtimoiy kafolatlarini kuchaytiriladi.
- Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishni tubdan yaxshilash, xalq tabobatini yanada rivojlantirish, ilg'or xorijiy tajribalar asosida uzluksiz ta'lim sifati darajasini ko'tarish, ilm-fan rivojini jadallashtirish hamda madaniy-ma'rifiy sohalarini yanada yuksaltirishni ustuvor vazifalar, deb hisoblaymiz.

uchun ekologiya va atrof-muhit muhofazasi, ona tabiatni asrab-avaylashga bag'ishlangan darslik, qo'llanma, tarqatma hamda ko'rgazmali materiallar bepul chop etilishi va tarqatilishi ta'minlanadi.

Jamiyatda ekologik masalalarning ahamiyati oshib borgan sari sohaga oid yangi kasblar, yangi yo'nalishlarga zarurat sezilmoqda. Shundan kelib chiqib, but "yashil" iqtisodiyotga mos keladigan kasb-hunar yo'nalishlari ro'yxatini tuzish va kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yishni maqsad qilganmiz.

Bu boradagi ishlar oliy ta'lim tizimida ham izchilik bilan davom ettiriladi. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish yo'nalishlari bo'yicha davlat granti hisobidan malakali kadrlar tayyorlash kengaytiriladi, pedagog kadrlar tayyorlash jarayoni zamon talabari asosida isloh qilinadi, shu sohada zamonaviy texnologiyalarni joriy qilishga yo'naltirilgan yangi ta'lim muassasalarini tashkil etiladi. Keyingi bosqichda ekologiya sohasidagi muammolarni tadqiq qilishni rag'batlantirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot dasturlari, grantlar joriy etiladi.

Bundan ko'rinadiki, nomzod jamiyat rivojida "yashil" iqtisodiyot modelini shunchaki tavsiya qilish bilan cheklanmaydi. Balki uni amalga oshirish mexanizmini ham atrof-muhit ko'rsatib o'tmoqda. Bunday platformaga o'tish uchun ishni ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashdan boshlash kerakligiga alohida urg'u beradi. Zotan, soha bo'yicha yetarli mutaxassislar bo'lmasa, "yashil" iqtisodiyotni hatto tasavvur qilib ham bo'lmaydi. Zamonaviy kadrlar masalasi esa hamisha dolzarb bo'lib kelgan. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, nomzod Saylovoldi dasturida taklif qilyotgan g'oyalarning kompleks mexanizmini ham ilgari surayotgan e'tiborga sazovor.

Dasturda ilm-fan sohasini rivojlantirishda ekologik tadqiqot va innovatsion faoliyat ko'laminii kengaytirish nazarda tutiladi. Bunda:

● ekologik toza, chiqindisiz va resurste- jamkor texnologiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan ilm-fan rivojini jadallashtirish hamda ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish asosida ilmiy mahsulotlar hajmi oshiriladi va innovatsion usullar keng joriy etiladi;

● atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi ilmiy tashkilotlarning ilmiy-innovatsion faoliyatini iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha ehtiyojlariga to'liq moslashtirish, yuqori samarador ilmiy ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etish ko'lami oshiriladi;

● hududlarda ekotexnoparklar tashkil etish va ular faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ishlanmalarini keng joriy etish choralarini ko'riladi;

● foydali qazilmalarni aniqlash, qazib olish va qayta ishlashning ilmiy-texnik darajasini oshirishga qaratilgan aniq yo'nalish- larga oid ilmiy tadqiqotlar rivojlantiriladi.

Kelajakda mazkur soha bo'yicha yetuk va kreativ olimlar korpusini yaratish va ular ish- lab chiqqan g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish albatta o'zining ijobiy samarasini beradi.

Saylovoldi dasturida ko'zda tutilgan hamda yuqorida sanab o'tilgan jihatlarning barchasi jamiyatimizdagi muayyan tar- moq va sohalar faoliyatini takomillashtirish borasida bildirilayotgan takliflarda o'z yechimi- ni topgan. Shu bilan birga, ularni amalga oshirish, ijtimoiy hayotimizga keng joriy etishda aholining barcha qatlamlari mazkur islohotlar mohiyatini to'g'ri tushunib, ularda daxldorlik tuyg'usining shakllanishi muhim o'rin tutadi. Nomzod dasturiy takliflarida ham ayni shu jihat mustahkam o'rin egallaydi. Xususan, nomzod madaniy-ma'rifiy sohada quyidagi vazifalarni amalga oshirishni muhim deb hisoblaydi:

● "Aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish to'g'risida"gi dastur qabul qilindi;

● turizmning ekologik, agro, gas- tronomic, ekstremal va boshqa turlari

infrastrukturasini rivojlantiriladi, "Eco-Uzbe- kistan" nomli ekoturizm brendi shakllantiriladi;

● aholining atrof-muhit holati bo'yicha xabardorligini oshirish, muntazam ravish- da atrof-muhit holati yuzasidan milliy ma'ruza va tahliiy hisobotlarni nashr etib borish yo'lga qo'yiladi;

● ekologiyaga oid ilmiy-ommabop axborot bosma nashrlar, teleradio dasturlar davlat tomonidan doimiy qo'llab-quvvatlanadi;

● mamlakatda ekologiya va atrof-muhit muhofazasi yo'nalishida faoliyat ko'rsa- tayotgan barcha nodavlat notijorat tashki- lotlarining faoliyati yanada rivojlantiriladi, ularni huquqiy, moliyaviy qo'llab-quvvatlash kuchaytiriladi.

Shu o'rinda ta'kidlash joiz, ekologik barqarorlik, yuqorida ko'rganimiz kabi bugungi kunda barcha sohalar rivojiga ta'sir ko'rsatuvchi omil bo'lib turibdi. Avvalo, in- son omiliga katta e'tibor qaratish, uni ilg'or islohotlarning ongli ishtirokchisi va tashab- buskoriga aylantirish g'oyasi eng muhim va dolzarb masaladir.

Nomzod bildirgan tashqi siyosat va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish borasidagi takliflar ham e'tiborga mo'lik. "Tashqi siyosat va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish sohasi- da qo'shni davlatlar bilan xavfsizlik, barqarorlik va do'stona qo'shniqlik munosabat- larini mustahkamlash ishlarini izchil davom ettiriladi", deya ta'kidlaydi nomzod Abdushukur Hamzayev o'z Saylovoldi dasturida.

Jumladan, qo'shni davlatlar bilan do's- tona va pragmatik hamkorlikni davom et- tirish, mintaqamizdagi tabiat resurslaridan hamkorlikda foydalanish, mavjud ekologik muammolarni o'zaro manfaatlarini hisob- ga olgan holda, amaliy muloqot, xalqaro huquq normalari asosida hal etish, o'simlik va hayvonot olamini muhofaza qilish, epi- demiya va pandemiyalar holatlarida barcha kuchlarni birlashtirish maqsad qilingan. Markaziy Osiyo mamlakatlarining o'zaro manfaati hamkorligini yanada kengaytirish, ekologik investitsiyalar kiritilishini rag'bat- landirish orqali aholiga tuzilish uchun ham keng imkoniyatlar yaratiladi.

Barqaror rivojlanishni ta'minlash yu- zasidan Markaziy Osiyo va boshqa xo- rijiy davlatlar bilan ekologik-innovatsion yo'nalishlarda hamkorlikni chuqurlashtirish, ekologik ta'lim va bilimlarni rivojlantirish is- tiqbollari yuzasidan xalqaro forumlar o'tkazila- di. Mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish loyihalarini amalga oshirishda xalqaro tashkilotlar va moliya institutlari bilan hamkorlik kengaytiriladi.

Guvohi bo'lganimizdek, O'zbekiston Ekologik partiyasidan O'zbekiston Respub- likasi Prezidentligiga nomzod Abdushukur Hamzayevning Saylovoldi dasturi ijtimoiy hayotimizdagi barcha sohalar rivojiga qaratilgan o'rinni taklif va mulohazalarni o'zida mujassam etgan. Nomzod kelajakda amalga oshiriladigan tabiiy islohotlar negizida barcha masalalarga keng qamrovli tarzda yondashish zarurati alohida e'tirof etadi. Tizimli va aniq mexanizmlar yaratish orqali davlat va jamiyat hayotida kutilgan natijalar- ga erishish imkonligiga e'tibor qaratadi.

Xalqimizni, ekologiyaga befarq bo'l- magan barcha hamyurtlarimizni nomzodi- mizning Saylovoldi dasturida belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda, atrof-muhitni muhofaza qilish va bebaho tabiiy boyliklarni asrab-avaylashdek muhim maqsadlarga erishishda birgalikda faol ishtirok etishga chaqiramiz.

Bugungi farovon taraqqiyot hamda barqaror kelajagimiz uchun barchamiz muhim siyosiy jarayon — O'zbekiston Res- publikasi Prezidenti saylovida faol ishtirok etaylik!

Ravshanbek BEGMATOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati,
O'zbekiston Ekologik partiyasi Markaziy Kengashi a'zosi



ZAMONAVIY SANOAT TARAQQIYOTI

Mis ishlab chiqarish salohiyatini oshirish imkoniyatlari



Abdulla XURSANOV,
"Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ boshqaruvi raisi

Boshlanishi 1-betda

Konferensiya doirasida respublikamizda tog'-kon va geologiya sanoatida amalga oshirilayotgan islohotlar, rivojlanish tendensiyalari, global qiymat zanjiriga bog'lanish bo'yicha qilinayotgan ishlarni muhokama qilish, sohaga istiqbolli investitorlarni jalb etish mexanizmlarini ko'paytirish, kon-metallurgiya hamda unga bog'liq sanoat tarmoqlari o'rtasida kooperatsiya aloqalarini o'rnatish nazarda tutilgan. Sanoatning muhim, ta'bir joiz bo'lsa, asosiy va istiqbolli tarmog'iga doir xalqaro anjumaning O'zbekistonda o'tkazilayotgani bejiz emas. Binobarin, so'nggi yillarda mamlakatimizda mis qazib olish va undan mahsulot ishlab chiqarishga katta e'tibor berilyapti. Dunyoda esa mis qazib olish sanoati va unga aloqador tarmoqlarga iqtisodiyotning haqiqiy drayverlari sifatida qaraladi.

Mis — yumshoq, cho'ziluvchan, bog'aluvchan qizg'ish tusli metall hisoblanadi. Uning aynan ana shu kabi xususiyatlari tufayli bugun dunyo iqtisodiyotida qadri ortib bormoqda. Mutaxassislar unga kelajak mahsuloti, deya baho beradi. Chunki yaqin kelajakda aynan mis bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish tarmoqlari jadal rivojlanadi va bu jarayonga allaqachon kirishilgan.

Dunyoda elektromobillar, elektrotexnika va qayta tiklanuvchi energiya sohalari rivojlanishi evaziga 2030-yilga borib, misga bo'lgan talab 40 foizga oshishi kutilmoqda. Quvonarlisi, bu borada yurtimiz katta zaxiraga ega. Zaminimizda istiqbolli konlar mavjud. Jumladan, kombinatimizning mis resurslari 45 million tonnani tashkil etishi ushbu yo'nalishda ulkan imkoniyat mavjudligidan dalolatdir. Ulkan zaxirani o'zlashtirish, ulardan qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish borasidagi sa'y-harakatlar esa yaqin istiqbol haqida tasavvur qilishga imkon yaratadi.

Ma'lumki, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilangan. Davlat dasturiga muvofiq, mis sanoati klasterini tashkil etish orqali mis va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi 2 barobar ko'paytirilib, 8 milliard dollarlik mahsulot ishlab



chiqarish yo'lga qo'yiladi. Ayni paytda bu boradagi ishlarga jiddiy kirishilgan. Ya'ni Kanadaning "HATCH" konsalting kompaniyasi bilan birgalikda Mis sanoati klasterini tashkil etish va rivojlantirish konsepsiyasi, 2022-2026-yillarda kon-metallurgiya mashinalari, texnikalari va tog'-kon sanoatida o'sib boradigan ehtiyojlar uchun uskunalarining yangi turlarini hamda ehtiyoj qismlar ishlab chiqarishni tashkil etish dasturi tayyorlandi.

Mis sanoati klasterini tashkil etish va rivojlantirish konsepsiyasida respublikada ishlab chiqariladigan mis mahsulotlari ro'yxatini shakllantirish maqsadida tashqi bozor talablari hamda mis ishlab chiqarish salohiyatini maksimal oshirish imkoniyatlari, raqobat ustunliklari o'rganildi. Ushbu keng ko'lami vazifalarni sifati amalga oshirish uchun respublika ishchi

guruhi tomonidan Chili va Braziliyadagi mis klasterlari tajribasi, eng ilg'or metallurgiya kombinatlarining texnologiya va uskunalarini chuqur o'rganildi.

Masalan, Chiling "Codeco" kompaniyasi fabrikalari va "Chukikamata" ochiq va shaxta usulida yiliga 18 million tonna ruda qazib olinadigan kon tajribasini "Yoshlik-2", "Miskon" va boshqa konlarni o'zlashtirishda qo'llashni belgilab oldik.

"BHP" kompaniyasining (Avstraliya) "Spensa" koni rudasining tarkibi va geologiyasi "Yoshlik" koni tavsifiga to'g'ri kelishi sababli 1 ta liniyadan iborat bo'lgan va yiliga 25 million tonna ruda qayta ishlaydigan rudani boyitish texnologiyasi o'rganilib, Olmaliq kon-metallurgiya kombinatining kelajakda quriladigan 4-misni boyitish fabrikasini loyihalashda 6 ta liniyani o'rnatish nazarda tutilmoqda.

Mamlakatimizda mis sanoati klasterini rivojlantirish holatini ayrim raqamlarda ko'rsatish mumkin. Misol uchun, 2018-yilda 22,4 ming tonna mis qayta ishlangan bo'lsa, joriy yilda bu ko'rsatkich 95 ming tonnani tashkil etadi.

Olmaliq kon-metallurgiya kombinati tomonidan ham yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish borasida salmoqli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, dastlabki qiymati 70 million dollarni tashkil etuvchi elektroliz usulida o'ta yupqa mis folgasini ishlab chiqarish loyihasini amalga oshirish orqali 2025-yilga kelib, yiliga 5 ming tonna tayyor mahsulot ishlab chiqarish ko'zda tutilgan. Mazkur mahsulotga jahon bozorida talab kun sayin oshib bormoqda.

Elektromobillar sonining o'sishini hisobga olgan holda, kombinatda elektromotorlarda ishlatiladigan to'g'ri burchakli sim ishlab chiqarish loyihasi ham boshlandi. Loyihaning birinchi bosqichida ishlab chiqarish quvvati 6 ming tonnani tashkil etadi. Kelgusida bu ko'rsatkich 12 ming tonnaga qadar oshirilib, asosiy qismi eksport qilinadi.

Ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish va importni keskin qisqartirish maqsadida yangi turdagi tog'-metallurgiya mashinalari, uskunalar va ehtiyoj qismlarini ishlab chiqaruvchi Mashinasozlik zavodini qurish bo'yicha hisob-kitoblar tayyorlanmoqda. Bu zavodning prognoz qiymati 900 million dollar bo'lib, 2027-yilda ishga tushiriladi. Unda 35 turdagi yangi jihoz va tayyor uskunalar ishlab chiqariladi hamda 2 mingga yaqin yangi ish o'rni yaratiladi.

Albatta, ushbu keng ko'lami vazifalarni amalga oshirish yangi barpo etiladigan korxonalarda zamonaviy texnologiyalarda ishlay oladigan muhandis va texnik xodimlarni tayyorlash bilan birga olib borilmoqda.

Bunda asosiy e'tibor kon-metallurgiya yo'nalishlari bo'yicha zamonaviy va energiya samarador texnologiya va uskunalarini o'rganishga qaratilmoqda. Shuningdek, ta'lim sifatini oshirish uchun Milliy tadqiqotlar texnologik universiteti "MISIS"ning Olmaliq filiali o'quv jarayoniga yil davomida 8-10 nafar xorijiy professor va olimlar jalb qilinmoqda. Talabalarning kombinat korxonalarida ishlab chiqarish amaliyotini o'tashi va yosh kadr bilan doimiy ravishda ishlash, ularning bilim va malakasini uzluksiz oshirib borishni ta'minlaydigan "Ustoz-shogird" tizimi yo'lga qo'yilgan.

Hozirgi kunda zamonaviy texnologiyalarda ishlay oladigan, ularni boshqarish qobiliyatiga ega muhandislar malakasini oshirish bo'yicha kombinat qoshida Muhandislik maktabi tashkil qilinmoqda. Maktab faoliyatini Germaniyaning "Aurubis" AJ trening markazi namunasida tashkilatish rejalashtirilgan.

Bularning barchasi davlatimizda nafaqat mis, balki yuqori qo'shimcha qiymatga ega turli eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish orqali ko'proq foyda olish, tashqi bozorda raqobatbardoshligini oshirish imkonini berish bilan birga, mis sanoati klasterida xususiy tadbirkorlar ishtirokini kengaytirish va yangi ish o'rnlarni yaratishga keng yo'l ochishi bilan ahamiyatlidir.

AGROSANOAT



Meva-sabzarotchilik: YANGICHA TIZIM VA SAMARA

So'nggi yillarda amaliyotga joriy etilayotgan klaster tizimi qishloq xo'jaligida yaxshi samara bera boshladi. Jumladan, Qashqadaryoda ham qishloq xo'jaligi, ayniqsa, meva-sabzarotchilikni rivojlantirish borasida yangi tizimning afzalliklari tufayli sohada yuqori hosil olinmoqda. Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-dekabrda "Meva-sabzarotchilik sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, tarmoqda klaster va kooperatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori muhim dasturlamal bo'lmoqda.

yetkazib berildi. O'tgan yili korxonada xoriy davlatlarga bir million dollardan ortiq mahsulot eksport qilindi. Joriy yilda jamoa bu ko'rsatkichni ikki barabarga yetkazishni maqsad qilgan.

Namanganlik dehqonlar Qashqadaryoda

Qishloq xo'jaligida xizmatlar ko'rsatish agentligi Qashqadaryo viloyat hududiy bo'limi ham yo'lga qo'yildi. Hozirda 35 gektar maydondagi brokkoli karam tayyor bo'ldi va ularni eksport qilishga hozirlik ko'rilmog'ida. Shuningdek, 110 gektar maydondagi toklar orasiga ekilgan mosh ham yaqin orada tayyor bo'lib qoladi. Bunday vaqtda mavsumiy ishchilar safini oshirib, besh yuz nafarga yaqin xotin-qiz jalb etiladi.

Mo'l daromad manbai

2018-yilda bog'dorchilik sirlarini jiddiy o'rgangan tadbirkor Anzur Normurodov shu yo'nalishda "Darmon-farm" klasterini tashkil etishga bel bog'ladi. Qisqa fursatda ishga kirishib, Yakkabog' tumanidagi "Jiyda" mahalla fuqarolar yig'ini hududida bo'sh turgan yer maydonini olib, ishini boshladi.

Turkiyadan yuqori hosil beruvchi olma navini keltirib, ikki yuz gektar yerda kattagina bog' tashkil etdi. Shuningdek, shu yilning o'zida 210 gektar joyga "Qora kishmish", "To'yi", "Rizamat o'ya" navli uzum ko'chatlari o'tqazib, tokzorga aylantirdi. Kattagina hududni egallagan olma va toklarni sug'orish tizimi ham Turkiya texnologiyasi asosida joriy etildi. Natijada uch yuz nafarga yaqin aholi ish bilan ta'minlandi.

O'tgan yili olmalarimiz ilk marta hosilga kirdi, — deydi ushbu klaster agronomi Sherbek Normurodov. — Agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida bajarishimiz, daraxtlarga yaxshi ishlov berishimiz natijasida birinchi yilning o'zidayoq ming tonnaga yaqin hosil oldik. Bu esa dastlabki yil uchun yaxshi samara. Tokzorimizdan ham yaxshigina uzum yig'ishtirib oldik.

Olmalarimizdan joriy yilgi mavsumda yanada yuqori unumdorlik kutilmoq-

da. Ya'ni o'rtacha uch ming tonna hosil olishni maqsad qilganmiz. Bundan tashqari, bog' orasiga sabzavot ekishni ham yo'lga qo'ydik. Hozirda 35 gektar maydondagi brokkoli karam tayyor bo'ldi va ularni eksport qilishga hozirlik ko'rilmog'ida. Shuningdek, 110 gektar maydondagi toklar orasiga ekilgan mosh ham yaqin orada tayyor bo'lib qoladi. Bunday vaqtda mavsumiy ishchilar safini oshirib, besh yuz nafarga yaqin xotin-qiz jalb etiladi.

Klasterda meva-sabzavotni qayta ishlab zavodi faoliyatini ham yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, umumiy quvvati besh ming tonna meva-sabzavot saqlovchi omborxonam ham mavjud.

— Korxonamizda 60 nafar xotin-qiz ikki smenada ish olib boradi, — deydi zavod texnologisi Sardor Xoliyorov. — O'zidan qatnovchilar uchun avtobus tashkil etilgan. Ishchilar uch mahall isiq ovqat, kerakli sharoit bilan ta'minlangan. Hozirda asosiy ishimiz — daladan karamni yig'ishtirib xoriyga sotishga tayyorlash. Kuz fasliga borib, mevalar pishib yetilgach, zavodimizda qayta ishlashga kirishamiz.

Joriy yildan klasterda ko'chatchilik ham yo'lga qo'yildi. "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida viloyatning barcha tuman va shaharlariga ko'chat

viloyatlardan ham tajribali dehqonlarni jalb etish yo'lga qo'yildi, — deydi Qishloq xo'jaligida xizmatlar ko'rsatish agentligi Qashqadaryo viloyat hududiy bo'limi boshlig'i o'rinbosari Zokir Yangiboyev. — O'tgan yil boshida Namangan viloyatidan bir guruh malakali dehqonlar G'uzor hamda Shahrisabz tumanlariga kelib, tajribalari bilan o'rtoqlashdi. Kasbga doir yangiliklar, o'simliklarni parvarishlash borasidagi ma'lumotlar almashildi. Ularning ko'magida G'uzor tumanining 93 gektar maydonida yangi tokzor tashkil etildi. Bugungi kunda ham hamkorlik ishlari davom etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish xarajatlarini miyolaylashtirish va ularni xarid qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash borasida ham viloyatdagi qishloq xo'jaligi korxonalarida tizimli ishlar joriy etilmoqda. Qarorning tegishli bandiga ko'ra, byudjet sudasi hisobidan qishloq xo'jaligi korxonalariga meva, uzum, sabzavot, kartoshka, poliz ekinlari, gul, ko'katlar va dorivor o'simliklar, tut, pilla, makkajo'xori doni, dukkakli va moyli ekinlar yetishtirish uchun zarur bo'lgan moddiy-texnik resurslar, jumladan, urug'lik va ko'chat yetkazib berish, shuningdek, qishloq xo'jaligi xizmatlarini ko'rsatish uchun qayta ishlovchi, saqlovchi va eksport qiluvchilarga, xususan, "Agroservis operator" davlat unitar korxonasiga yetishtirilgan qishloq xo'jaligi ekinlarini xarid qilish uchun talab etiladigan aylanma mablag'larini to'ldirish maqsadida yillik 14 foiz stavkada qarz mablag'lari ajratilishi belgilab berilgan. Shu maqsadda viloyatda faoliyat olib borayotgan tegishli tashkilot va korxonalariga, fermer xo'jaliklariga "Agroservis operator" DUK tomonidan hozirga qadar jami 23,3 milliard so'mlik moddiy-texnik resurslar yetkazilgan.



Takorriy ekin — koni foyda

Qashqadaryoda takorriy ekin ekish va undan yaxshigina daromad olish borasida kattagina tajriba to'plangan.

— Meva-sabzavotchilik tizimida faoliyat boshlaganimga ikki yildan oshdi, — deydi "Koson sof agro" MCHJ klasteri rahbari Husniddin Shaymardonov. — Ko'p yillik tajribamga tayanib gapiradigan bo'lsam, takorriy ekin yaxshi samara beradi, deb bemalol ayta olaman. Men ham bu yil ellik gektar maydonga poliz ekinlari ekanman. Yaqinda hosilni yig'ishtirib, uning o'rni qiz ekishni rejalashtiryapman. Hisob-kitob qilib ko'rsak, bu o'simlik ikki oyda tayyor bo'lar ekan. Hozirda o'rtacha bir gektar yerdan ikki tonnadan oshiqroq tariq olamiz. Demak, ellik gektar maydonga ekadigan bo'lsak, kamida yuz tonna hosil olamiz. Ayni paytda buni sotib olish istagini bildirgan xorijlik tadbirkorlar bilan ham muloqot olib bordik. Ular o'z takliflarini bildirdi. Tez orada shartnomalar tuzilib, ishini boshlab yuboramiz.

Vohada o'tgan yili g'alla hosilidan bo'shagan yer maydonlaridan 750 gektarga xaridorig bo'lgan brokkoli karam ekildi. Buning uchun Yakkabog' tumanidan 10 gektar maydon tanlab olinib, zamonaviy ko'chabxona tashkil etildi. Yetishtirilgan 30 million dona shu turdagi karam nihollari joylarga yetkazib berildi.

Natijada viloyat bo'yicha jami 3200 fuqaroning doimiy, olti ming nafarining mavsumiy bandligi ta'minlandi. Yetishtirilgan mahsulotlar evaziga 55 milliard so'mlik poliz ekinlari bozorga chiqarilib, xalqimiz dasturxonini to'kinligiga erishildi.

To'kin va fayzli

2023-yil yakuniga qadar meva-sabzavotchilik yo'nalishida vohada yuqori natija kutilayotgani prognoz qilinmoqda. Buning uchun asosiy maydonlarga — 10,9 ming gektar yerga sabzavot, 5 ming gektar maydonga poliz, tokzorlar oralig'iga kartoshka, qo'shimcha 7,8 ming gektar hududga sabzavot ekinlari ekilgan, 7 ming gektar yerda bog' yaratilgan. Qishloq xo'jaligida, asosan, tomchilatib, yomg'irlatib sug'orishdan foydalanilmoqda.

Yurtimiz bozorlarini meva-sabzavot mahsulotlari bilan boyitishda dehqon xo'jaliklarining ham hisssasi katta. Xususan, hozirga qadar viloyatda "E-auskon" elektron platformasi orqali jami 17 ming fuqaroga 9,3 ming gektar dehqon xo'jaligi uchun yer ajratilgan. Joriy yilda ushbu xo'jaliklarda aynan import o'rini bosuvchi ekinlar ekish taklifi berilgan. Natijada 2,1 ming gektarga sabzavot, 3,3 ming gektarga poliz, 1,4 ming gektarga kartoshka, 657 gektarga moyli ekinlar, 1132 gektarga dukkakli va 814 gektarga boshqa ekinlar ekildi. Bundan jami 59 ming tonna hosil olish ko'zda tutilmoqda. Shuningdek, "Bir kontur — bir mahsulot" tamoyili asosida yetishtirilgan mahsulotlar qayta ishlovchi, saqlovchi va eksportyorlar tomonidan sotib olinishi kabi xizmatlar qonirarli ravishda yo'lga qo'yildi.

Ma'lumotlarga ko'ra, ayni paytda viloyatda jami 35 ta meva-sabzavotchilik klasteri faoliyat olib bormoqda. Kerakli imkoniyatlar yaratilishi va imtiyozlardan maqsadli foydalanayotgan klasterlar bugun nafaqat ichki, balki xoriy bozorlarini ham sarxil mevalar, sifati sabzavotlar bilan ta'minlashda jonbozlik ko'rsatmoqda. Sohadagi klasterlarning istiqboldagi rejalariga nazar tashlaydigan bo'lsak, 2023-2024-yillarda yanada yirik loyihalarni amalga oshirib, yaxshi ko'rsatkichlarga erishish ustida ish olib bormoqda. Shu bilan birga, aholini ish bilan ta'minlash ustuvor vazifalardan biri etib belgilangan.

Xulosa o'rinda aytganda, sohadagi keng ko'lami islohotlar aholi turmush tarzining yanada yaxshilanishiga, bozorlaridanning to'kin va fayzli bo'lishiga xizmat qilmoqda.

Akbar RAHMONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

30-IYUN — YOSHLAR KUNI

"TO'LQIN URGAN UMMONCHA BOR YURAKDAGI TUG'YONIM"



Boshlanishi 1-beta

Yaratilayotgan imkoniyatlardan oqilona foydalanayotgan yuksak bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, qat'iy pozitsiyaga ega yoshlar mamlakatning bugungi va ertangi taraqqiyotida tobora hal qiluvchi kuchga aylanib borayotir. Ular o'zlarini tanlagan sohalarida aytishga arziqlik yutuqlarga erishish bilan birga o'z so'zlarini ham baralla aytmoqda. Ana shunday salohiyatli yigit-qizlarning jo'shqin va samimiy mulohazalari Erkin Vohidovning "To'lqin urgan ummoncha bor yurakdagi tug'yoni" satriga hamohang ekanligi quvontiradi.



Ruhiy va jismoniy kurashlarda toblanib

Dovurbek KAROMATOV, "Mard o'g'lon" mukofoti sohibi

To'rt yoshimdan boshlab kurash sport turi bilan shug'ullanganman. Avvaliga otam Fozilxon Karomatov, keyin esa ustozim Bekzod Vositovdan kurash sirlarini o'rgandim. Keyinroq Respublika Olimpiya xazinalari maktab-internatida tahsil oldim. Men u yerda paradyudo sport turi bilan shug'ullana boshladim.

Davlatimiz tomonidan men kabi jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslarga yaratib berilgan imkoniyatlar sportda bir qator yutuqlarga erishishimda muhim omil bo'ldi. O'tgan davr mobaynida paradyudo bo'yicha ko'plab xalqaro musobaqalarda sovrinni o'rinlarni qo'lga kiritdim. Astoydil tashlangan qadam, har bir sa'y-harakat e'tiborsiz qolmas ekan. Buni men o'z taqdirim misolida ko'rdim. 2021-yili Yoshlar kuni munosabati bilan "Mard o'g'lon" davlat mukofoti bilan taqdirlandim. O'sha paytdagi hayajonimni so'z bilan ifoda qila olmayman. Mukofot menga mas'uliyat ham yukladi. O'sha yili Tokioda bo'lib o'tgan paralimpiya o'yinlarida kumush medal sovrindori bo'ldim.

2024-yilda Parijda bo'ladigan paralimpiya o'yinlariga aniq tizim asosida tayyorgarlik ko'rishga qattiq bel bog'laganman. Men bu musobaqada oltin medalni qo'lga kiritib, Vatanimiz bayrog'ini balandga ko'tarish uchun qo'lmdan kelganicha harakat qilaman.

Bugun yurtimizda yoshlarning ilm olishi, kasb-hunar egallashi, sport bilan shug'ullanishi uchun juda ko'p imkoniyatlar yaratilgan. Bundan unumli foydalanagan yoshlar ko'p sohalarida o'z salohiyatini namoyish etayotir. Ular safida ekanimdan baxtiyorman.



Ezgu yo'ldagi qadamlarga ulkan e'tibor ifodasi

Hojiya RO'ZIMHAMMEDOVA, Olmazor tumani 102-zaif ehsituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatining ehsitish idroki fani o'qituvchisi, "Kelajak bunyodkori" medali sohibi

2021-yili Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti korreksion pedagogika yo'nalishi magistratura bosqichini tamomlab, poytaxtimizdagi 102-maxsus ixtisoslashtirilgan maktab-internatida "Ehsitish qobiliyatini shakllantirish va talaffuzga o'rgatish" fanidan dars bera boshladim. Jismoniy imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlash oson emas, ammo shu sohani tanlayotganimda ko'ngli o'ksik bolalarning hayotini yaxshilashga hissa qo'shishdek sharafli ish oldida bu mashaqqatlar katta ahamiyatga ega emas deb bilganman.

Ayni paytda zaif ehsituvchi, ko'zi ojiz, gapirishda va intellektual nuqsoni bo'lgan bolalarga surdo yo'nalishida individual ta'lim beraman.

Biror gapni og'zaki tushuntirishdan ko'ra, imo-ishora bilan tushuntirish qiyinroq. Chunki bolalar turlicha gapiradi, tushunishlar har xil. Tovushlaridagi nuqson ham turli. Shu bois, mashg'ulot yakka tartibda o'tiladi.

Ularni o'qitish texnikasi tovushlarni talaffuz qilish, nafas mashqlari, tovushni tiklash bilan parallel olib boriladi. Bu borada yangi



metodlarni o'rganib, mashg'ulotlarni sifatli va samarali tashkil etishga harakat qildim.

Imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlayotganim e'tibordan chetda qolmadi. O'tgan yili "Kelajak bunyodkori" medali bilan taqdirlandim. Ko'ksim g'ururga to'ldi. Ochig'i, bu kabi mukofotlar, avvalo, yurtimizda yoshlarga qaratilayotgan katta e'tibor namunasidir. Endilikda surdo yo'nalishi bo'yicha doktorlik ilmiy ishini boshlash niyatidaman. Maqsadim — imkoniyati cheklangan bolalarning hayotda o'z o'rnini topishiga ko'maklashish.

Iqtidor — maqsaddan chekinmaslikda

Yoqutxon HASANOVA, Mukarrama Turg'unboeva nomidagi "Bahor" davlat raqs ansambli artisti, "Kelajak bunyodkori" medali sohibi

Go'zallik dunyosi insonning shaxsiyatini doimo boyitadi va yuksaltiradi. Shu bois, raqs san'atining nafisligi, ohanrabosi yoshlik chog'larimdayoq o'ziga rom etgan. Bu san'at insonning eng go'zal his-tuyg'ulari va hayajonlarini, uning nozik ichki kechinmalari hamda orzu-umidlarini o'zida mujassam etadi, tuyg'ularni nafis harakatlarda ko'rsatadi. Bolaligimdan buni yaxshi his qilardim. Keyinchalik raqs san'atiga qobiliyatim borligini bilgan ota-onam va ustozlarim raqsga ixtisoslashtirilgan maktab-internatiga o'qishga olib keldi. Bu maktabda besh yil tahsil oldim. Bir necha bor Respublika va xalqaro tanlovlarda g'olib bo'lganim uchun O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasiga imtiyozli ravishda o'qishga qabul qilindim.

O'qish davomida ham tinimsiz o'z ustimda ishladim. Harakatlarim besmar ketmadi. 2019-yilda "Nihol" davlat mukofotiga sazovor bo'ldim.



2022-yilda esa "Kelajak bunyodkori" medali bilan taqdirlandim.

Mamlakatimizda yoshlarning bilim olishi, ma'naviy va ma'rifiy saviyasini yuksaltirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Iqtidorimizni ro'yobga chiqarish esa harakatimizga, har qanday holatda maqsaddan chekinmasligimizga bog'liq.

Xorijliklar yuzidagi hayrat havasga aylandi

Risolat MAXSIMOVA, O'zbekiston Xalqaro islom akademiyasi magistranti, "Kelajak bunyodkori" medali sohibi

Oldimizga aniq maqsad qo'yish katta mehnat talab qilmaydi. Hamma gap natijada, ya'ni havas qilingan marrani egallash va maqsadga yetishda. Bu yo'lda maslahat, tanbeh beruvchilar-u yo'ldan qaytarishga urinuvchilar ham ko'plab topiladi. Bu o'z ustingizda tinimsiz ishlaysiz, ko'plab kitoblarni mutolaa qilasiz, shularning o'zi g'alabaga erishish uchun yetarli bo'ladimi? Menimcha, yo'q!

Izlanish, intilish, kitob mutolaasi-yu sevimli mashg'ulotlar bilan shug'ullanish — barchasida tizimlilikka tayyanish kerak. Mutaxassisligim bo'yicha bilimlarning eng keraklisini chuqur o'rganishga intilaman. Bu yondashuv shu kunga qadar o'zini oqlayapti.



taqdirlandim. Bu e'tirof meni odatdagidan ko'ra ko'proq izlanishga, o'z ustimda ishlashga va kattaroq marralarni zabt etishga kuch berdi.

Joriy yil mart-aprel oyida Shveysariya davlat bo'lib o'tgan "Media Communications Management" grant dasturida ishtirok etdim. Ana shunda Buyuk Britaniya, Belgiya, Armaniston, Turkiya va boshqa davlatlardan kelgan ishtirokchilarning eng yoshi bo'lish barobarida Markaziy Osiyodan qabul qilingan yagona vakil edim. Dastur qatnashchilari o'tgan yili 30-iyunda O'zbekiston Prezidenti bilan tushgan rasmiy ko'rib hayratlandi. Siz shu yoshingizda qanday qilib davlat rahbari bilan uchrashgansiz, ko'ksingizda mukofot ham turibdi, deb savol berishdi. Men esa yurtimizda harakat qilgan yosh borki, e'tirof etiladi, deb javob berganimda, ulardagi hayrat o'rnini havas egalladi.

Axir omad va muvaffaqiyat shunchaki kelmaydi, buning uchun harakat, mehnat, iroda va qat'iyat talab qilinadi. Asosiysi, o'zimizga bo'lgan ishonchimiz so'nmasligi kerak. Qiyinchiliklar sabab maqsaddan kechish esa yaramaydi.

Hozirda Yoshlar ishlari agentligi Markaziy apparatida loyiha menejeri sifatida ishlayapman. Shuningdek, magistratura bosqichida o'qiyapman. Mamlakatimizning umidli yoshlaridan biri sifatida yaqinlarni, ustozlarim, davlatimiz tomonidan menga bildirilgan ishonchni oqlab, dunyo sahnida ham o'z qalamiga, o'z o'rniga ega jurnalist, jahon media nazariyasiga hissasini qo'sha oladigan mutaxassis bo'lmoqchiman. Umuman, maqsadlarim, niyatlarim, rejalarim ko'p, ishonamanki, astoydil harakat bilan ularni amalga oshira olaman.

SHE'R YOZISHIM YOSHLIKDAGI HISSIYOTLARIM, NASRDAGI IJODIY MASHQLARIM ESA BADIY ASARLARGA MUHABBATIM BILAN BOG'LIQ. LITSEYDA O'QIB YURGAN KEZLARIM USTOZLARIMNING TAVSIYASI BILAN BADIY-PUBLITSISTIK MAQOLALAR YOZA BOSHILADIM. HOZIR ESA UNIVERSITETDA USTOZLARIM KO'MAGIDA BADIY TARJIMAGA QO'L URDIM. YA'NI ADABIYOT DOIMIY YO'LDOSHIM.

Yutuqlar manzili — iste'dod va yaratilgan imkoniyatlar uyg'unligida

Sevara BAHODIROVA, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindori, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabasi

Bolaligimdan o'qishga juda qiziqqanman, buni payqagan ota-onam meni bir yil oldin maktabga berdi. 1-sinfga qadam qo'yganimda alifboni, harflardan so'zlar tuzishni, o'zbekchadan tashqari ingliz va rus tillarida ham bir oz suhbatlashishni bilardim. Albatta, hammasi oilam, yaqinlarimning e'tibori, men bilan qo'shimcha shug'ullangan mahsul bo'lgan. Maktabga qabul qilishda mendan davlat madhiyasini so'rashgan. O'sha vaqtda har kun ertalab radioda ehsitilganida to'lqinlanib ketadigan O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasini baralla aytib berganman.

Yuqori sinfda adabiyot fani o'tila boshlaganda badiiy asarlarga ham juda qiziqishimni angildim. Birinchi o'qigan badiiy kitoblarim Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanini bo'lgan. Shundan keyin kitobga oshno tutindim.

She'r yozishim yoshlikdagi hissiyotlarim, nasrdagi ijodiy mashqlarim esa badiiy asarlarga muhabbatim bilan bog'liq. Litseyda o'qib yurgan kezlarning ustozlarimning tavsiyasi bilan badiiy-publitsistik maqolalar yoza boshladim. Hozir esa universitetda ustozlarim ko'magida badiiy tarjimaga qo'l urdim. Ya'ni adabiyot doimiy yo'ldoshim.

Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini taqdirlash tantanasiga tayyorlanish uchun respublikamizning barcha hududlaridan 28 nafar qiz yig'ildik. Opalarim-singillarim, tengdosh o'rtog'larim bilan suhbatlashar, ularning bu yergacha yetib kelishdagi yo'lariga xayolan boqarkanman, yurtimizda xotin-qizlar uchun yaratilgan keng imkoniyatlar orzu-intilishlariga qanot bo'lganini angildim.

Bugun qizlarga o'qish uchun shunchalik imkoniyatlar ko'pki, ularni o'yab aqling shoshadi. Bir qancha tavsiyanomalar orqali qo'shimcha oila farzandlariga talaba bo'lish, kam ta'minlangan grant farzandlarining to'lov-kon-



trakti davlat va tegishli idoralar tomonidan to'lab berilishi, ta'lim uchun uzoq muddatga foizsiz kredit, magistraturada to'liq grant asosida o'qish imkoniyati, doktorantura uchun alohida kvotalar... Men faqat ta'lim sohasidagi imkoniyatlarimizdan bir shingilini sanab o'tdim. Vaholanki, barcha sohalarida yaratilgan shart-sharoit bugun el koriga yaraydigan iste'dodli qizlarni yuzaga chiqarayotganiga barchamiz guvoh bo'lib turibmiz.

Men yutuqlar omad va tasodiflarga bog'liq degan fikrga qo'shilolmayman. Ular ezgu maqsad sari doimiy intilishdan yaralishiga hayotim misolida amin bo'ldim. Albatta, bu yo'lda mashaqqat va qiyinchiliklar bo'ladi. 2022-2023-o'quv yilida Navoiy nomli davlat stipendiyasi va 2023-yil fevral oyida turk tilidan C2 darajadagi xalqaro til bilish sertifikatini qo'lga kiritdim. Muallifligimda 3 ta to'plam bor. Bugungi kunda nufuzli tadbirlarda tarjimon va jurnalist, ba'zida tashkilotchi sifatida ishtirok etyapman. Har gal biron yutuqqa erishganimda kelajakdagi maqsadlarim sari yana bir qadam idamlaganimni his etaman. Biz erishayotgan yutuqlar iqtidor va yaratilgan shart-sharoit, g'amxo'rlikning uyg'unligidan yuzaga keladi deb hisoblayman.

2022-yilda O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetining xalqaro jurnalistika va jamoatchilik bilan aloqalar fakultetini tamomladim. O'qish mobaynida ilmiy izlanish bilan shug'ullandim va 2021-yilda Islom Karimov nomidagi davlat stipendiyasi, 2022-yilda esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiyasiga sazovor bo'ldim.

Turli xalqaro, milliy grant va tanlovlarda faol bo'lishga harakat qilaman. Boisi, bunday jarayonlarda yetakchi mutaxassislar bilan fikr almashishim, tajriba oshirishim, turli savollarimga javob topishim, yangiliklardan xabardor bo'lishim mumkin.

Xususan, 2022-yilning may oyida Tojikistonda bo'lib o'tgan loyihalar tanlovi men uchun shunday vazifani bajardi. Yevrosiyo miqyosida o'tkazilgan "Idea fest 2020" loyihasi esa o'z kamchiliklarim ustida ko'proq ishlashimga turki berdi. Natijada 2021-yil Yevropa Ittifoqi tomonidan Osiyo miqyosida tashkil etilgan xalqaro "WECOOP project" ekologik loyihalar tanlovida muvaffaqiyatli ishtirok etdim.

Mana shu yutuqlarim sabab 2022-yilda "Kelajak bunyodkori" medali bilan

"Yangi O'zbekiston" muxbiri Risolat MADIYeva tayyorladi.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



MADANIY YODGORLIK

esa Abdullaxon II ga nasib etdi. Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullaxona" asarida Abdullaxon II tomonidan 1558-1559-yillarda qurilish ishlari boshlab yuborilgani ma'lum qilinadi. Mazkur asardan biz majmuaning 1570-yilda qurib bitkazilganini bilib olamiz.

Obida bilan birga tarix ham qayta tiklandi

Maqolani yozishda tarixiy manbalar va chop etilgan adabiyotlardagina foydalanib qolmay, Chor Bakr mavzesida tug'ilib o'sib, hayotini shu muazzam majmuani asrab-avaylashga, uning tarixini kelajak naslarga yetkazishga, tozaligini ta'minlashga sarflayotgan insonlar bilan ham uchrashdik. Ulardan o'z ota-bobolari ko'rgan va aytib bergan voqealarni yozib oldik. Ma'lumot berganlardan biri — Roziya Yunusova (1958-yilda Chor Bakrda tug'ilgan)ning ajdodlari shu mavzeda yashab o'tgan. Bobosi qori Yunusxo'ja, otasi Ismoilxo'ja tarixiy obidani qo'riqlashga, ularning ayollari esa uni supuriib-sidirishga umrlarini sarflagan fidoyi, iymonli insonlar bo'lgan.

Roziya opaning aytishicha, 1930-1940-yillarda Chor Bakr majmuasi binolaridan turli kimyoviy o'g'itlar, paxta,



tubdan o'zgardi. Sobiq sho'ro hukumati davrida aziz-avliyolarning unutilayozgan nomlari qayta tiklandi, ular qoldirgan ulkan ma'naviy meros elimizga qaytarildi, muqaddas qadamjolar va masjid-madrasalar ta'mirlanib, yangilari qurildi.

1997-yili Buxoro shahri 2500 yillik to'yi nishonlandi. 1999-yil aprelda Buxoro Sharif jamg'armasi huzurida Chor Bakr me'moriy majmuini ta'mirlash direktori tashkil etildi. Ushbu ta'mirlash ishlariga ko'plab korxonalar, tashkilot, jamoat xo'jaliklari, shirkat, tuman hokimliklari jalb qilingan. Ta'mirlash ishlari ko'lam

Chor Bakr durdonasi ma'naviyatimizning to'rt ustuni

Buxoro shahridan 6 kilometr uzoqlikda — janubi-g'arbiy qismida Talipoch darvozasi orqali Jondor tumaniga olib boradigan yo'l yoqasida 16,7 gektar maydonni egallagan yirik tarixiy obida bor. Xalq orasida Chor Bakr nomi bilan mashhur bo'lgan ushbu majmua ziyoratgohga aylangan. Joy nomi ham Chor Bakr bo'lib, Buxoroning qadimiy qishloqlaridan biri sanaladi va o'z davrida Sumitan deb atalgan. "G'iyos ul-lug'ot" asarida unga "jundan mato to'quvchilar maskani" deya sharh beriladi.

Bir necha asrlar osha saqlanayotgan bunday madaniy yodgorliklar, tarixiy obidalar doim sayyohlarni o'ziga chorlab kelgan. Yurtimizning eng obidalariga boy hududlaridan biri Buxoro viloyatidan yil o'n ikki oy sayyohlarning qadami uzilmaydi. Oxirgi yillarda turizm sohasiga e'tibor kuchayib, ana shunday obidalarimizga sayyohlarni ko'proq jalb etish, yurtdoshlarimiz va xorijliklarni ko'ngina tarix sirlari bilan tanishtirish imkoniyatlarini kengaytirilmoqda.

Chuniki diyorimiz ulkan turistik salohiyatga ega davlatlar qatorida turadi. Bizda turizmning madaniy turidan tortib, hozir ommalashayotgan ekologik, etnografik, ekstremal, arxeologik va boshqa har qanday yo'nalishdagi sayohatlarini tashkil etish imkoniyati bor. Tahlillarga ko'ra, joriy yilda 7 million xorijiy va 15 million ichki sayyohlarni jalb qilish, soha eksportini 2,5 milliard dollarga yetkazish mumkin. Shu vazifalarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti joriy yil 26-aprel kuni "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi qarorni imzoladi.

Chor Bakr kimlar edi?

Chor Bakr majmuasini tomosha qila turib, beixtiyor bir necha asr oldingi davrga tushib qolgandek bo'lasiz. Chor Bakrdagi binolar XVI-XIX asrlarga mansub. Obidada 26 ta hovli, darvozaxona, peshtoqlar, madrasa, masjid-xonaqoh, hammom, dam olish hujralari, hovuz, darsxona, mustahabxonalar yaxlit bir ansambli

tashkil qiladi. Ayniqsa, bu yerdagi xonaqoh, madrasa va masjid me'morchilik ansambli nuyob namunalar bo'lib, ularni bunyod etgan me'morlar ismi noma'lum. Ammo tarixchi Hofiz Tanish Buxoriyning yozishicha, "Xon hazratlarning arkoni davlati va ayonlari, xususan, o'sha vaqtda oliy muhrdorlik mansabida bo'lgan Amir Xalifa mazkur imoratlarini bitirishda to'maman ehtimom (g'ayrat, himmat) ko'rsatdi".

Majmuaga qo'shimcha binolar sifatida xazira va daxmalar qurilgan. Bu o'rinda "xazira" — "xazon bo'lganlar", "xobidagon" esa "abadiy uyquga ketganlar" ma'nolarini anglatadi. Obidada 10 dan ortiq xazira bo'lib, ularning har birida ko'plab qabrlar mavjud. Masalan, Sa'dullo xo'ja xazirasida 110 ta qabr bor.

Obidaning nomlanishi ham o'sha davrlarga borib taqaladi. Majmuaning eng qadimiy qismi X asrda shakllangan bo'lib, uning nomlanishi shu yerda dafn etilgan islom olamining ko'zga ko'ringan vakillari, hadisshunos va fiqh ilmining bilimdonlari bo'lgan chor Bakr, ya'ni to'rtta Bakr tarixi bilan bog'liq.

Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadi, chor Bakr, ya'ni to'rtta Abu Bakr xususida yakdil fikr mavjud emas. Biroq X asrda yashab, mazkur majmuada dafn qilingan va Buxoro xoni Abdullaxon II (XVI asr) davrida Chor Bakr majmuasining qurilishiga sabab bo'lgan dastlabki ikki Abu Bakr borasida shak-shubha yo'q. Bular Abu Bakr Sa'd Yamaniy hamda uning o'g'li Abu Bakr Ahmad ibn Sa'ddir.

Manbalarda keltirilishicha, "Abu Bakr" ism emas, balki nisba (unvon, laqab, kuniya)dir. Uning arab tilidan tarjimasini



"Bakr otasi" yoki "Bakr avlodi" ma'nolarini beradi. Abu Bakr Siddiqdan keyin Payg'ambarimizning boshqa avlodlari, jumladan, Imom Husaynning o'g'li Xoja Abu Bakr Sa'd ham "Abu Bakr" nisbasini qabul qilgan.

X asrda "Abu Bakr" unvoni bilan mashhur bo'lgan imomlar orasida bir nechta tasning nomi tarixiy manbalarda ko'p tilga olinadi. Ulardan biri Abu Bakr Sa'd Yamaniydir. U Jo'yi Mo'lyon va Sumitan qishlog'ida qator inshootlar, xususan, bog'-rog' yaratib, sarhovuz, sardoba, tegirmon, hammom, bozorcha qurdirgan. Xoja Sa'd vafot etgach, vasiyatiga ko'ra, uning jasadi Sumitanidagi qadimiy qabristonga ko'milgan. Keyinchalik bu joy, ya'ni Chor Bakr majmuasi jo'yborlik payg'ambar avlodlarining mangu oromgohiga aylangan.

Abu Bakr Ahmad ibn Sa'd esa ko'plab shayx va avliyolarga ustozlik qilgan. Ayrim tarixchi olimlar Xoja Sa'd bilan Abu Bakr Ahmad ibn Sa'dni bir odam deb yozadi. Ammo Imom Husayn shajaranomasida ular ota-o'g'il bo'lgani ko'rsatilgan.

"Tarixi Mullazoda" (XV asr) asarida Abu Bakr Muhammad ibn Fazl bin Ja'far al-Buxoriy haqida ham so'z boradi.

Tarixchi va geograf olim Ahmad ibn Mahmud Buxoriyning keltirishicha, Abu Bakr Fazl yirik faqih, muhaddis va mujtahid bo'lib, ayniqsa, uning "Musnadi Fazl" hadislar kitobi dong taratgan. Abu Bakr Homid ham yirik muhaddislardan. Unga zamondoshlari tomonidan "Shayx ul-olam" unvoni berilgan. Ul zotning xoki Mozori Sharif darvozasi qabristonga qo'yilgan.

Ayrim manbalarda yana bir Bakr sifatida Abu Bakr Tarxon ham tilga olinadi. U IX asrning ikkinchi yarmida tug'ilgan, Buxoro Sharifning yirik shayx va imolaridan biri bo'lib yetishgan. "Tarixi Mullazoda" asarida yozilishicha, Abu Bakr Tarxon "Jome val musnad" kitobining muallifi, 945-yili Buxoroda vafot etgan va shahar atrofidagi qabristonga dafn etilgan.

Abu Bakr Sa'dning keyingi avlodlari hisoblanmish Jo'ybor shayxlari ham ushbu xonadon nomining yanada mashhur bo'lishiga xizmat qilgan. XV-XVI asrlarda Jo'ybor shayxlari Naqshbandiya tariqatini yangicha sharoitlarda rivojlantirdi. Ular shayboniyalar sulolasi hukmronligi davrida tarix sahnasiga chiqib, keyingi bir yarim asr davomida Buxoro xonligining ijtimoiy-siyosiy hayotiga faol aralasha boshladilar.

"Jo'ybor" so'zi "ko'p ariq oqadigan joy", "katta ariq" ma'nolarida qo'llanib, biz tarixi bilan qiziqayotgan bakrlarning Jo'ybor xojalari nomini olishi XV asr boshlarida Xoja Muhammad Yahyoning (Xoja Muhammad Islomning bobosi) Jo'yborga ko'chib kelishi bilan bog'liq. Jo'ybor xojalari islomni targ'ib qilish uchun Mak-kadan Nishopurga, u yerdan Buxoroga kelgan imomlar avlodlaridir.

Ayniqsa, Xoja Islom Jo'yboriy (1493-1583) o'z ajdodlarining Sumitan qishlog'ida mol-mulklarini tasarrufiga olgach, shayboniyalar davlatida ham iqtisodiy, ham diniy jihatdan katta ta'sirga ega shaxs darajasiga yetadi. Aslida, madrasa, masjid va xonaqohdan iborat Chor Bakr me'moriy majmuini barpo etish g'oyasi Xoja Muhammad Islom ko'nglida bor edi. Uni amalga oshirish

MADRASANING YUQORI QAVATLARIGA EKSKURSIYA DAVOMIDA GUVOH BO'LDIKKI, U TASHQI TOMONDAN NAZAR SOLGANDA 3 QAVATGA O'XSHAB KO'RINSA-DA, ASLIDA, 5 QAVATLI BO'LIB, 30 TA HUJRADAN IBORAT. XONAQOHDA AMRI MA'RUF TINGLANGAN, HUJRALARDA ESA MAJMUA KIZMATCHILARI ISTIQOMAT QILGAN VA ZIYORATCHILAR DAM OLGAN.

1960-yillarda kartoshka saqlanadigan joy, 1970-yillarda Buxoro poyabzal fabrikasining ombori sifatida foydalanilgan. O'sha yillarda "Nashtar" televideniya hujjatli filmidan so'ng Chor Bakr majmuasi "omborxonalar"likdan xalos etilgan.

Madrasaning yuqori qavatlariga ekskursion davomida guvoh bo'ldikki, u tashqi tomondan nazar solganda 3 qavatga o'xshab ko'rinsa-da, aslida, 5 qavatli bo'lib, 30 ta hujradan iborat. Xonaqohda amri ma'ruf tinglangan, hujralarda esa majmua xizmatchilari istiqomat qilgan va ziyoratchilar dam olgan. To'rtta Bakrdan ikkitasi — Abu Bakr Tarxon va Abu Bakr Homid Buxoro shahri ichida joylashgan Dahmai Shahidonda dafn qilingan.

Chor Bakr majmuasi asrlar davomida ziyoratgoh sifatida e'zozlab kelingan. Biroq sho'rolar hokimiyati yillarida uning ko'pgina obidalari yemirila boshladi. Ming yillar davomida ushbu majmua ta'minoti uchun ajratilgan vaqf mulklari Sho'ro davlati hisobiga ajratilgan, uni ta'mirlashga mablag' ajratilmagan. Buxoro viloyat davlat arxivi fondlarida saqlanayotgan "Buxkomstaris" hujjatlarida Chor Bakr majmuasi o'tgan asrning 30-yillari o'rtalaridayoq ta'mirlalab bo'lib qolgan haqida hisobotlar mavjud.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, ma'naviyatimiz sarchashmalaridan bo'lmish islom diniga munosabat

6 gektar maydonni qamrab olgan. 1930-yildan boshlab Chor Bakr majmuasi hududida noqonuniy ravishda qurilgan 35 xonadon buzilib, ularning o'rniga bog'-rog'lar barpo etildi, qadimiy hovuz va toshquduq qayta tiklandi. Xullas, XX asrda qarovsiz qayta tiklandi. 2000-yil avgustida to'liq ta'mirdan chiqarildi.

Bugun ana shunday obidalariga e'tibor yanada ortmoqda. Nafaqat yurtdoshlarimiz, balki xorijlik mehmonlar ham tariximiz, madaniy yodgorliklarimizga katta qiziqish bildiriyapti. Ushbu maskanlarga sayyohlar oqimini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ham har qachongidan faollashgan. Asosiysi, tariximizni boricha asrab, uni yanada go'zal va zamonaviy vositalar yordamida namoyon etish bugungi kunimiz, yangi O'zbekiston ruhiga mos harakatlardan biriga aylandi.

Zero, Chor Bakr kabi qalbi iymon nuri bilan to'lgan, irodasi ixlos va e'tiqod yotgudusi ilya mustahkamlangan tabarruk zotlar vafotlaridan keyin ham ma'nau va ruhan tirik bo'lib qolaveradi, ularning ezgu ish-lari el-yurtga hamisha ibratdir.

Azalshoh HAMROYEV,
Buxoro davlat universiteti
tuzilmasidagi Qatag'on qurbonlari
xotirasi muzeyi direktori, dotsent,
Mavluda RAHMONOVA,
TURON ZARMED universiteti katta
o'qituvchisi



MURUVVAT

QISMATGA QARINDOSH TUTINGANLAR

Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanidagi Xondayliq qishlog'i haqida ko'pchilik eshitgan. Purviqor tog'lari, odamoxun insonlari bilan mashhur bo'lgan bu qishloq ahli xayr-saxovatli ishlari bilan ham ko'pchilikka ibrat. U yerda yashayotgan aholining hamjihatligi esa havas qilsa arzulik.

Faxriddin aka va Gulbahor opa Inkarovlar ana shunday insonlar sirasiga kiradi. Ularning o'n uch nafar farzandi bor. Joriy yil 15-may — Xalqaro oila kuni munosabati bilan Inkarovlar oilasi Toshkent viloyatida o'tkazilgan "Eng yaxshi oila" ko'rik-tanlovida birinchi o'ringa sazovor bo'ldi.

— Oilamizda 26 jon istiqomat qiladi. Gulbahor ayangiz qariganida yana bir etak farzand ko'rishni xohlab qoldi, — deydi Faxriddin aka hazilomuz kuli. — Yaxshi niyat yorti mol deganlaridek, besh oy ichida farzandlarimiz soni o'n uch nafarga yetdi. To'g'risini aytam, ayolimning yuragidagi armonlari ham aridi.

Har bir so'zni hazilga burib, matallar bilan gaplashadigan Faxriddin akaning ayoli Gulbahor opa turmush o'rtog'ining qo'llab-quvvatlashi tufayli 2019-yilda 200 o'rinni zamonaviy tipdagi maktabgacha ta'lim tashkilotini qurib, tadbirkorlikni yo'lga qo'ydi. Mahalladagi 150 dan ziyod bog'cha yoshidagi kichikintoylarni qamrab oldi.

"Aslida, avvaldan bolajonman. Yoshligimdan katta hovlida ko'p bolalarim bilan yashashni niyat qilardim, insonning baxti ham, bag'ri ham farzandlar bilan butun bo'ladi. Yangi bog'chaning tashkil etilishidan qishlog'imizdagilar ham xursand bo'ldi. Qolaversa, mahallamizdagi

ishsiz ayollar uchun yangi ish o'rni yaratildi, o'zimiz uch kelinim ham muqim ishli bo'ldi, — deydi Gulbahor opa.



— Albatta, har bir ishda turmush o'rtog'im va o'g'illarim ixlos, Xislat, Xushnud bel bog'lab yordam berdi. Bundan

ikki yil ilgari kichik o'g'lim betob bo'lib, 24 kun jonlantirish bo'limida hushsiz yotdi. O'sha damlar dunyo ko'zimga qorong'u bo'lib ko'ringan. Yaratganga nola qilib, "nuridiydamning farzandlari yetim bo'lib qolmasin, nevaralarimga yetimlikni ravo ko'rmagin", deya yig'lardim. O'g'lim oyoqqa turgach, bola asrab olib, tarbiyalashni niyat qildim.

Mana, bugun uch nafar bolam 13 nafarga yetdi. Ochiq aytadigan bo'lsam, avvaliga bolalarning oila sharoitiga ko'nikishi qiyin bo'ldi.

Allohga shukr, bugun ular bag'rimni to'ldiryapti va juda mehribon. Qizlarim Madina, Dildora, Asal, Jasmina, o'g'illarim Arsen, Nazar, Komron, Amir, Nurmuhammad, Nursulton ko'zimning oq-u qorasi. Dilbandlarimning orasida aka-uka Nurmuhammad va Nursultonning qismati achinarli. Bolalar ota-onasidan erta ayrilgan. Falokat oyoq ostida ekan, aksiga olib uy ham yonib ketgan. Vasiylikka olgan buvisi ikki nevarasini Mehribonlik uyiga

topshirgach, bir hafta o'tib qazo qilgan. Endigina 3-4 yoshga kirgan aka-ukalar Mehribonlik uyida tarbiya topganlari bilan ota-ona diydori, mehrija zor bo'ladi.

Hozir bu egizaklar oilamizning erkatoylariga aylanib ulgurgan. Nurmuhammad kichik bo'lsa ham orzulari katta. Meni sayohatlarga olib borishini, turli taqinchoqlar sovg'a qilishini, asosiysi, yaxshi inson bo'lishini qayta-qayta aytadi. Bularni eshitib, ko'nglim tog'dek ko'tariladi.

Darhaqiqat, mehr isizis ketmaydi, balki yaxshilik va saxovatini ergashtirib keladi. Gulbahor opaning farzandlariga o'tgan yili viloyat hokimi tashabbusi bilan 50 million so'm mablag' ajratildi.

Ushbu mablag' evaziga bolajonlarga o'zbekona urf-odatlariga ko'ra sunnat to'ylari qilindi. Opaning tashabbusi bilan mahalladagi ehtiyojmand oila farzandlarining to'ylari ham qo'shib o'tkazildi. Qolgan mablag'ga mo'jazgina cho'milish havzasi qurildi. Gulbahor opa yaqinda yana besh nafar bolani bag'riga oladi. U achchiq qismat egalari qarindosh tutingan zamonamiz qahramonlaridan biridir.

Nigora O'ROLOVA,
jurnalist

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati" DUK

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-646.
41011 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi A2.** Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Shahzod G'afforov
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz: 100029,
Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy

Topshirildi — 03:15

Qabulxonasi: (71) 233-56-33

Devonxonasi va e'lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz Web-sayt: www.yuz.uz (71) 233-47-05